2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 228 (1289), 2024-yil 9-noyabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA

Qadrli tibbiyot xodimlari!

Avvalo, o‘z hayotini inson salomatligini asrashdek olijanob ishga bag‘ishlab kelayotgan siz azizlar — fidoyi shifokor va hamshiralarni, soha faxriylarini kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Barchamiz yaxshi tushunamizki, el-yurt salomatligi — jamiyatning bebaho boyligidir. Tinchlik va sog‘liq bo‘lgan joyda albatta o‘sish va o‘zgarish, baxtli va farovon hayot bo‘ladi.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonimiz erishayotgan katta yutuqlarda, inson kapitalini rivojlantirishda jonkuyar tibbiyot xodimlarining munosib hissasini e’tirof etib, ularga har qancha rahmatlar aytsak, arziydi.

Aziz do‘stlar!

Keyingi yillarda amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz tufayli sog‘liqni saqlash tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda.

Avvalo, ajratilayotgan budjet mablag‘larining bir necha bor ko‘paytirilgani, xususiy sektor rivojiga keng yo‘l ochilayotgani tufayli sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda, xizmatlar tarmog‘i kengayib, sog‘lom raqobat muhiti shakllanib, sifat va samaradorlik oshmoqda. Diagnostika va davolash amaliyotiga ilg‘or zamonaviy texnologiyalar faol joriy etilmoqda.

Barcha ijtimoiy xizmatlar qatori tibbiyotni ham xalqimizga yanada yaqin qilish uchun malakali davolash va profilaktika tizimini xonadonlargacha olib kirish choralari ko‘rilmoqda.

Shu maqsadda birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari faoliyati yangilanmoqda. Ushbu bo‘g‘inda birinchi navbatda kasalliklarning oldini oladigan, ularni keltirib chiqaradigan sabablarga qarshi kurashadigan mexanizmlarni joriy etish boshlangani ham shundan dalolatdir.

Aholining ehtiyojmand qatlamlariga yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni mahallabay, manzilli va aniq maqsad asosida ta’minlash bo‘yicha yangicha tajriba qo‘llanmoqda. Tizimda “Elektron poliklinika”, “Elektron retsept” dasturlari joriy etilmoqda. Buning uchun patronaj xodimlari xalqaro standartlar asosida o‘qitilmoqda.

Tez tibbiy yordam tizimi avtomatlashtirilgan elektron boshqaruvga o‘tkazilib, xorijda ishlab chiqarilgan 1000 ta maxsus zamonaviy avtomobil bilan ta’minlandi.

Ixtisoslashgan tibbiy xizmat ham aholiga yaqinlashtirilmoqda. Bu yo‘nalishda diagnostika usullari 500 dan, davolash usullari esa 800 dan oshgani e’tiborlidir.

Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida donordan olingan suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi, Kardiologiya markazida murakkab endoskopik jarrohlik amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Milliy tibbiyot markazi shifokorlari tomonidan olis tumanlarda Yevropadan keltirilgan ko‘chma kardiojarrohlik majmuasida murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda.

Azim poytaxtimizda tibbiyot sohasidagi noyob mega loyiha sifatida barpo etilgan Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya markazining yangi zamonaviy majmuasida so‘nggi namunadagi asbob-uskuna va sharoitlar asosida kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash hajmi bir necha barobar oshadi. Eng muhimi, yurtdoshlarimiz ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflab, chet eldagi davolash markazlariga borish tashvishidan qutuladi.

Hech shubhasiz, tibbiyot sohasidagi yutuqlarimiz xalqaro miqyosda e’tirof etilayotgani barchamizni quvontiradi. Bolalar milliy tibbiyot markazi xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgani, Xirurgiya markazida xalqaro sifat standartlari joriy etilgani, mamlakatimiz gepatit B ga qarshi kurashishda mintaqaviy maqsadli ko‘rsatkichlarga erishgani tasdiqlangani shular jumlasidandir.

Albatta, barchamizning birgalikdagi mehnatimiz mahsuli bo‘lgan bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Yaqinda davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etishga oid qaror imzolandi. Ushbu hujjatga ko‘ra, tizim doirasidagi bepul tibbiy xizmatlar va dori-darmonlar xarajatlari davlat budjetiga to‘lanayotgan soliqlar hisobidan qoplanishi belgilandi.

Aholi salomatligiga e’tiborni kuchaytirish orqali inson qadrini oshirish, uning hayotiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bunday muhim ishlarni kelgusida ham izchil davom ettiramiz.

Muxtasar aytganda, tibbiyotni yanada xalqchil sohaga aylantirish, odamlarni ushbu tizimdan rozi qilish masalasi doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etishda muqaddas qasamyodiga sodiq siz, zahmatkash va olijanob tibbiyot xodimlari o‘zingizni ayamasdan, boy bilim, mahorat va tajribangizni safarbar etasiz, deb ishonaman.

Buyuk Ibn Sino bobomiz an’analarining munosib davomchilari bo‘lgan siz, azizlarni Tibbiyot xodimlari kuni bilan yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, sharafli faoliyatingizda yangi yutuqlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish, sohada tub islohotlar va muhim dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi katta xizmatlari, o‘zining fidokorona mehnati, bilim va malakasi bilan aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini yuksaltirish, ilg‘or xorijiy tajriba va davolash usullarini amaliyotga keng joriy etish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shib kelayotgani, yuqori kasb mahoratiga ega kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi ibratli faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abduraxmanov Akram Abdusattarovich — Respublika bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi jarrohi

Batirov Abduraxman Ruzumbayevich — Boyovut tumanidagi “Boyovut To‘maris shifo” mas’uliyati cheklangan jamiyati bolalar shifokori, Sirdaryo viloyati

Jalolova Xafiza Muxtorovna — Pop tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi mudiri, Namangan viloyati

Xudayberdiyev Kobil Tursunovich — Andijon davlat tibbiyot institutining travmatologiya, ortopediya va neyrojarrohlik kafedrasi mudiri, Andijon viloyati

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Avezova Gulnora Rustamovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Navoiy viloyati filiali Qiziltepa tumani bo‘limi bosh feldsheri

Allakulov Islambay Madrimovich — Xorazm viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining reanimatsiya bo‘limi mudiri

Berdiyeva Muqaddas Xasanboyevna — Sharof Rashidov tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ayollar internat uyi hamshirasi, Jizzax viloyati

Maulenov Babaraushan Jumabayevich — Shumanay tumani tibbiyot birlashmasining qabul bo‘limi anesteziolog-reanimatologi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Maxmatmuratova Gulsina Islamovna — Urgut tumanidagi “Sharof Rashidov” oilaviy shifokorlik punkti umumiy amaliyot shifokori, Samarqand viloyati

Memdjanova Aliya Nuriyevna — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Farg‘ona filiali laboratoriya bo‘limi mudiri, Farg‘ona viloyati

Nazarov Akmal Bobamurotovich — Parkent tumani tibbiyot birlashmasining jarrohlik bo‘limi mudiri, Toshkent viloyati

Saidov Ashur Saparovich — Bandixon tumanidagi 44-oilaviy poliklinikasi oilaviy shifokori, Surxondaryo viloyati

Safarov Orif Muradullayevich — Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Buxoro filiali oftalmologi, Buxoro viloyati

Shukurov Abduraxman Raupovich — Qarshi shahri markaziy shifoxonasining reanimatsiya bo‘limi mudiri, Qashqadaryo viloyati

“Do‘stlik” ordeni bilan

Djumabayeva Roza Bazarbayevna — Bo‘stonliq tumanidagi “Pskom” oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshirasi, Toshkent viloyati

Salaxitdinov Shuxratjon Najmitdinovich — Bolalar milliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari — bosh shifokori

Smetova Gulnar Joldasbayevna — Kegeyli tumanidagi “Aqtuba” oilaviy shifokorlik punkti umumiy amaliyot shifokori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Xakimova Soxibaxon Obidjanovna — Andijon tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyi kichik tibbiy xodimi, Andijon viloyati

Xlevnaya Yelena Andreyevna — Guliston shahri ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi umumiy amaliyot shifokori, Sirdaryo viloyati

Davomi 2-betda

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI XALQARO MAJBURIYATLARGA SODIQLIK

BMT VA O‘ZBEKISTON: INSON HUQUQLARI SOHASIDA HAMKORLIK

Bugun dunyoda sodir bo‘layotgan chuqur va keskin siyosiy-iqtisodiy ziddiyatlar davrida yangi O‘zbekistonda tinch va farovon hayotni ta’minlash, inson sha’ni, qadr-qimmatini hurmat qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan.

O‘zbekiston BMT faoliyatida faol ishtirok etib, jahon hamjamiyati uchun umumiy muammolarni muloqot va hamkorlik, madaniy-tamadduniy, millatlararo va dinlararo o‘zaro kelishuv orqali hal etishga intilmoqda. Mamlakatimiz nufuzli tashkilotlar doirasida xalqaro normalarni yaratish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ortiq maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Xalqaro maydondagi faol ishtiroki mamlakatimizning tarixda ilk bor BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo bo‘lib saylanishiga hissa qo‘shdi. Ushbu kengash doirasida O‘zbekiston tashabbusi bilan “COVID-19 pandemiyasining yoshlar huquqlariga ta’siri”, “Yoshlar va inson huquqlari” hamda “Har bir bolaga tinchlik va bag‘rikenglik ruhida sifatli ta’limni ta’minlash” rezolyutsiyalari qabul qilindi.

Davomi 3-betda

Bunyodkorlik

QO‘NG‘IROT – BEYNEU: YEVROPAGA ELTUVCHI YO‘L

240 kilometrli zamonaviy Qo‘ng‘irot – Beyneu avtomobil yo‘li yurtimizni Kaspiy va Qora dengiz portlari orqali Yevropa bozorlari bilan ishonchli bog‘laydigan logistika tarmog‘iga aylanmoqda. Ushbu tarixiy jarayon Qoraqalpog‘iston hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatga ega “G‘uzor – Buxoro – Nukus – Beyneu” avtomobil yo‘lini foydalanishga topshirilishi bilan boshlandi.

Necha yildirki, hudud ahli yo‘l masalasida juda ko‘p muammolarga duch kelardi. Ba’zan manzilga yetib olishga ham qiynalardi. Chunki yo‘llarda yengil avtoulov umuman yura olmasdi. Endi esa to‘rt soatda Qo‘ng‘irot tumani markaziga, ikki soatda qo‘shni Qozog‘istonga bemalol borib keladigan bo‘lishdi. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Qo‘ng‘irot tumani hududidan xalqaro ahamiyatdagi “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” avtomobil yo‘li o‘tishi ana shu muammolarga barham berdi.

O‘tayotgan yil qoraqalpog‘istonliklar uchun tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Joriy yil boshida Amudaryo uzra Xorazm bilan Qoraqalpog‘istonni bog‘lovchi temir yo‘l va avtomobil yo‘l ko‘prigi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Taxtako‘pir tumanida Qarateren etnoturistik majmuasi barpo etilishi katta bayram va xursandchiliklarga aylanib ketdi.

Ko‘pchilik orziqib kutgan yo‘l loyihasining umumiy qiymati 383,4 million dollarga teng bo‘lib, shundan Osiyo taraqqiyot banki mablag‘i 274,2 million dollarni, O‘zbekiston ulushi esa 104,2 million dollarni tashkil etdi. Qurilish to‘rt yil davom etdi. Joriy yilda yo‘lning 240 kilometr qismining mukammal rekonstruksiyasi yakunlanib, foydalanishga topshirilishi hudud ahlini quvontirdi.

— Bu yo‘ldan tez-tez o‘tib turaman. Chunki qo‘shni davlatlarga yuk tashiyman, — deydi Shuhrat Husayinov. — Avtomobil qishda loyga, yozda qumga botib qolardi. Endi yo‘l tekis va ravon, uzog‘imiz yaqin bo‘ldi.

Qozog‘iston bilan chegaradagi Dovut ota postidan har kuni 3500 yo‘lovchi, 10 dan ortiq yuk avtomobili kirib keladi. 240 kilometr yo‘lning 8 ta joyida avtomobillarning vaqtincha to‘xtab turish manzili mavjud. Shuning 5 tasida savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari ishlab turibdi.

Mazkur avtomobil yo‘lini 2 tasmali sement-beton qoplamali magistralga aylantirish ishlari Turkiya, Ozarbayjon va Xitoyning tajribali kompaniyalari tomonidan bajarildi.

Magistral E-40 Yevropa yo‘nalishining O‘zbekiston hududidan o‘tuvchi bo‘lagi, shu bilan birga, transkaspiy xalqaro transport koridoriga olib chiquvchi eng yaqin yo‘l hisoblanadi. Yangi yo‘l nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega. Bu yerda mahalliy aholi ish bilan ta’minlanadi, hudud infratuzilmasi rivojlanadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlash yangi O‘zbekiston siyosati markazida turgan ustuvor vazifalardan.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 9-noyabr, 228-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

Shamsiyev Azamat Muxitdinovich — Samarqand davlat tibbiyot universitetining bolalar xirurgiyasi kafedrasi professori

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Artiqova Hulkar Akramovna — G‘allaorol tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi patronaj hamshirasi, Jizzax viloyati

Namozova Munisa Salomovna — G‘ozg‘on shahri tibbiyot birlashmasi tibbiy brigada hamshirasi, Navoiy viloyati

Niyazova Diloram Askarovna — Toshkent shahridagi 2-bolalar jarrohlik klinik shifoxonasining jarrohlik bo‘limi katta hamshirasi

Ujarova Dilbar Xurramovna — G‘uzor tumanidagi “Qovchin” oilaviy shifokorlik punkti shifokori, Qashqadaryo viloyati

Xusanova Norbegim Rivojovna — Paxtachi tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limining epidemiologiya va immunoprofilaktika bo‘linmasi mudiri, Samarqand viloyati

Hamdamova Muhayyoxon To‘xtasinovna — Buxoro davlat tibbiyot institutining akusherlik va ginekologiya kafedrasi professori, Buxoro viloyati

Homidjonova Rano Jiyanovna — So‘x tumanidagi “Lenbur” oilaviy shifokorlik punkti hamshirasi, Farg‘ona viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Jumaboyev Otabek Toshtemirovich — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Andijon filiali jarrohi, Andijon viloyati

Qobilov Botir Zakirovich — Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Jizzax filiali xirurgiya bo‘limi mudiri, Jizzax viloyati

Musayev Ulug‘bek Ergashaliyevich — Mingbuloq tumanidagi “Med Layt” xususiy klinikasi rahbari, shifokor-terapevti, Namangan viloyati

Sultanova Zulfiya Radjapbayevna — Tuproqqal’a tumanidagi “Sarimoy” oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshirasi, Xorazm viloyati

Tangirbergenov Rustam — Respublika tez tibbiy yordam markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi filialining Beruniy tumani bo‘limi haydovchisi

Tillaboyev Sodiqjon Valiyevich — Furqat tumani tibbiyot birlashmasining qabul bo‘limi jarrohi, Farg‘ona viloyati

Sharipov Islamjan Mamatxanovich — Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining kam invaziv yurak-qon tomir jarrohligi bo‘limi mudiri

Sharipova Ra’no Rustamovna — Sariosiyo tumanidagi “Guliston” oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshirasi, Surxondaryo viloyati

Yarmatov Alisher — O‘zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a’zosi, Samarqand viloyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 8-noyabr

Munosabat

“YOSHLARGA HAMROHLIK” DASTURI

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni voyaga yetkazish va jamiyatga integratsiyalashda muhim qadam bo‘ladi

Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar, o‘zgarish va yangi loyihalar, eng avvalo, inson qadrini ulug‘lash, xalqimizni rozi qilish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilayotgani fuqarolar huquq va manfaatlarini ta’minlashda muhim omil bo‘layotir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangani bu jabhadagi ishlarga yangicha ma’no-mazmun bag‘ishladi.

Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko‘rsatish maqsadida tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallalarda ijtimoiy xodim faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ijtimoiy himoya jamiyatda barqarorlik va adolatni ta’minlashning muhim asosi. Shu bois, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirish davlatimizning strategik vazifalaridan biriga aylandi. Kuni kecha Prezidentimiz huzurida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etishga oid takliflar taqdimoti jarayonida bu boradagi ishlar tahlil etilib, galdagi vazifalar belgilab berildi.

Bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlash yangi O‘zbekiston siyosati markazida turgan ustuvor vazifalardan. Bugun davlatimiz va jamiyatimiz bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, fuqarolik, sog‘liq, ta’lim olish, oilaviy munosabatlar, erkin fikr bildirish, tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalanganlikka doir hamda boshqa huquqlarini himoya qilish, shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy manfaatlarini ta’minlash borasida keng qamrovli ishlarni bajarmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qoidalari bolalarning huquq va manfaatlarini to‘laqonli ta’minlashga erishishga qaratilgan keng miqyosli islohotlarni ro‘yobga chiqarish asoslarini kuchaytirdi. Mamlakatimizda bola huquqlarini ta’minlashga doir huquqiy asoslar takomillashyapti. Bolalar mehnatiga barham berildi. Bolalarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha maxsus tashkilotlar ta’sis etildi.

Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalar manfaatlarini himoya qilish tizimi kuchaytirildi. Nogironligi bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shaklini bartaraf etish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan qabul qilingan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturida ijtimoiy yetimlikning oldini olish, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarga individual yondashuv asosida oilaga yaqin muhitda g‘amxo‘rlik ko‘rsatish hamda tarbiyalash vazifalari ham belgilangan. Shunga muvofiq, bunday bolalarni tarbiyaga berish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, bolani tarbiyaga berishda oila muhitini saqlab qolishga ustuvorlik beriladi. Bunda, avvalo, vasiylik, homiylik yoki farzandlikka berish qo‘llab-quvvatlanadi. Eng so‘nggi chora sifatida ixtisoslashtirilgan muassasaga joylashtiriladi.

Taqdimotda nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etishga qaratilgan takliflar ham ko‘rib chiqildi. Yurtimizda parasportning 19 turi bilan shug‘ullanishga sharoit yaratilgan. Nogironligi bo‘lgan 25 ming shaxs sport bilan shug‘ullanib kelmoqda. Bu boradagi imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilmoqda.

— Prezidentimiz huzurida bo‘lib o‘tgan taqdimotda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim masalalar ko‘rib chiqildi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori M.Olloyorov. — Paralimpiyachilarimiz erishgan yutuqlardan kelib chiqib, nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida sportni yanada rivojlantirish, ular ishtirokida o‘tkazilayotgan sport musobaqalarini ko‘paytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Jumladan, paralimpiya sport turlaridan tashqari, surdo, ko‘zi ojizlar uchun va maxsus olimpiya yo‘nalishlarida sport musobaqalari tashkil etish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, davlat sport maktablarida adaptiv sport bo‘yicha guruhlar tashkil etish, mahallalardagi maydonchalarni nogironligi bo‘lgan shaxslarga ham moslashtirish taklif etilmoqda. “ERP-sport” elektron tizimida nogironligi bo‘lgan shaxslarning alohida hisobini yuritish orqali ularning imkoniyatiga mos sport turlari avtomatik aniqlanadi. Reabilitatsiya markazlarida jismoniy terapiya, mexanoterapiya, fizioterapiya kabi zamonaviy reabilitatsiya usullarini qo‘llash kengaytiriladi. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashga ham e’tibor kuchaytiriladi. Bu yo‘nalishda xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lganlar hamda ularning murabbiylarini moddiy rag‘batlantirish tizimi joriy qilinadi.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarni oila muhitida voyaga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda “Yoshlarga hamrohlik” dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Bunga ko‘ra, vasiylik va homiylikka olingan bolalarni turli to‘garaklarga jalb etish, oliy ta’limga tayyorlash, kasb-hunar o‘rgatish, hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ish yuritiladi. Bu chora-tadbirlar yoshlarning jamiyatga faol integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, vasiylik va homiylikka olingan bolalar bilan ishlash tizimini to‘liq raqamlashtirish ko‘zda tutilmoqda. Bolalarni zo‘ravonlikning barcha turidan himoya qilish ham muhim vazifa. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, shu sohada yana bir hujjat — “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida” qonun ma’qullangan. Unda bu boradagi huquqiy asoslar mustahkamlanib, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi davlat organlari hamda ularning vakolatlari aniq belgilangan. Prezidentimiz ushbu qonunni imzoladi.

Bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam manfaatlarini muhofazalashga alohida e’tibor qaratilayotgani jamiyatimizda bag‘rikenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

JAHON SAMMITIDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI YUQORI BAHOLANDI

E’tirof

Bugun butun dunyo ko‘zda qalqqan bir tomchi achchiq yosh singari ulkan muammolar girdobida qolib ketyapti. Agar ko‘zni yumsa, yoshdan ayrilishi, yummasa, achchiq va sho‘r ashk ko‘zni achitgani singari iqlim o‘zgarishlari ham global muammo sifatida barchani birdek bezovta qilyapti. Hozir jahon hamjamiyati iqlim o‘zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olmoqda. Ayni davrda bu global muammo oqibatida insoniyat xo‘jalik faoliyatining barcha qirralari, xususan, qishloq xo‘jaligidan tortib, energetika, transport harakati, zamonaviy nanotexnologiyalardan foydalanish va boshqa sohalarda zudlik bilan hal etilishi shart bo‘lgan masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Boz ustiga, qit’alar va yirik-yirik davlatlar misolida suv toshqinlari, bo‘ronlar, o‘rmon yong‘ini, cho‘llanish jarayonlari kuchayishi, zilzila kabi tahdidlar chindan-da dunyo afkor ommasini jiddiy o‘ylashga majbur qilmoqda.

Shu maqsadda joriy yilning 5-6-noyabr kunlari Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida BMTning iqlim o‘zgarishi konferensiyasi (UNFCCC COP29) doirasida Jahon diniy yetakchilari global sammiti bo‘lib o‘tdi.

Mazkur nufuzli tadbirda hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, taniqli diniy yetakchilar, olimlar va ekspertlarning 300 ga yaqin vakili qatorida yurtimizdan O‘zbekiston Prezidenti maslahatchisi Muzaffar Kamilov, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazar, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari Davronbek Maxsudov ishtirok etdi.

Tadbirning birinchi kuni ishtirokchilar tomonidan global iqlim o‘zgarishining sabab va oqibatlari, tabiatni asrash, ekologik muammolarning oldini olish masalalari muhokama qilinib, bu borada barcha diniy konfessiyalar vakillari oldida turgan muhim vazifalar yuzasidan taklif va mulohazalar bildirildi.

Anjumanda O‘zbekiston delegatsiyasi rahbari Muzaffar Kamilov ma’ruza qilib, mintaqada, xususan, mamlakatimizda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni yanada boyitish yuzasidan qilinayotgan sa’y-harakatlar, o‘ziga xos tajribalar haqida so‘z yuritdi. Jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” loyihasi, unda turli diniy konfessiya va milliy markazlar vakillarining faol ishtiroki, loyiha doirasida har yili yurtimizda 200 million tup daraxt ekilib, yangi yashil hududlar barpo etilayotgani alohida ta’kidlandi.

Sammit ishtirokchilari tomonidan O‘zbekistondagi iqlim o‘zgarishining oldini olish borasidagi mazkur sa’y-harakatlar, yashil hududlarni ko‘paytirish borasidagi chora-tadbirlar va ilg‘or tashabbuslar yuqori baholandi.

Tadbirning ikkinchi kuni 30 ga yaqin diniy yetakchi va ulamoning ma’ruzalari tinglandi. Chiqishlarda iqlim o‘zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan ekani, bu borada BMT konvensiyasining ahamiyati, atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish, o‘sib borayotgan global ekologik tahdidlarga kompleks javob qaytarishda jahon diniy yetakchilarining roli kabi mavzularda chiqishlar qilindi.

Xalqaro anjumanda O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqnazar ham so‘zga chiqib, yurtimizdagi taniqli ulamolar, imom-xatiblar va soha xodimlari “Tabiat — Alloh taoloning omonatidir” shiori ostida targ‘ibot-tashviqot ishlarida, “Yashil makon” umummilliy loyihasida faol ishtirok etayotgani to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berdi.

Manfaatli muloqot va uchrashuvlar

O‘zbekiston delegatsiyasi Jahon diniy yetakchilari global sammiti doirasida qator uchrashuv va muloqotlar o‘tkazdi. Jumladan, delegatsiya vakillari Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov bilan uchrashdi.

Muloqotda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatlarimizning an’anaviy yaqin va do‘stona munosabatlarini yanada mustahkamlash, ilm-fan, madaniyat va diniy-ma’rifiy sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuvda Jahon diniy yetakchilari global sammitining ahamiyati haqida so‘z yuritilib, mazkur tadbir xalqlar va turli din vakillari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga katta hissa qo‘shishi, bu borada qardosh mamlakatlar diniy yetakchilari o‘rtasidagi hamkorlik juda ham muhim ekani ta’kidlandi.

Ali Asadov o‘z so‘zida yurtimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarni yuksak baholab, bundan keyin ham O‘zbekiston Ozarbayjonning eng yaqin ishonchli hamkori bo‘lib qolishini ta’kidladi. Shuningdek, u O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Fuzuliy shahrida umumta’lim maktabi bunyod etilganini e’tirof etib, bu muhtasham maktabni ozarbayjon xalqiga tuhfa qilgani uchun davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

> “Ollohshukur Poshshozoda joriy yilning oktabr oyida O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishini yuqori baholadi. Shuningdek, suhbatda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistondagi diniy-ma’rifiy soha rivoji, islom olamidagi buyuk allomalar merosini o‘rganish va jamoatchilikka yetkazishdagi jonbozligini alohida e’tirof etdi.

Ozarbayjon Respublikasi Diniy tashkilotlar bilan ishlash davlat qo‘mitasi raisi Ramin Mamedov bilan uchrashuvda so‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilgani, ozarbayjon xalqi o‘zbek xalqining do‘stona munosabatini doim his qilishi, boshqa sohalar kabi diniy-ma’rifiy sohada ham tajriba almashish o‘zaro manfaatli bo‘lishi ta’kidlandi.

O‘z navbatida, jamiyatda yot g‘oyalarga qarshi kurashish, masjidlar va imom-xatiblar faoliyatini samarali tashkil etish masalalarida hamkorlik ikki davlat uchun foydali bo‘lishiga alohida urg‘u qaratildi.

Samimiy va do‘stona ruhda o‘tgan yig‘ilishda Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, shayxulislom Ollohshukur Poshshozoda bilan ham suhbatda bo‘lindi.

Muloqotda ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish borasida davlat rahbarlari tomonidan amalga oshirilayotgan xayrli islohotlarga alohida e’tibor qaratildi.

Ollohshukur Poshshozoda joriy yilning oktabr oyida O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishini yuqori baholadi. Shuningdek, suhbatda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistondagi diniy-ma’rifiy soha rivoji, islom olamidagi buyuk allomalar merosini o‘rganish va jamoatchilikka yetkazishdagi jonbozligini alohida e’tirof etdi.

Uchrashuv yakunida shayxulislom hazratlari ikki mamlakat xalqi farovonligi, o‘zaro do‘stlik va qardoshlik aloqalarining rivojini tilab, duo qildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi a’zolari Rossiya muftiylar kengashi raisi Ravil Gaynuddin, Bahrayn Podshohligi Islom ishlari bo‘yicha oliy kengashi raisi Abdurahmon ibn Rashid al-Xalifa, Misr muftiysi Nazir Muhammad Ayyod, Misr vaqf ishlari vaziri Usoma Azhariy, Al-Azhar majmuasi vakili Muhammad Duvayniy, Musulmon donishmandlar kengashi bosh kotibi Muhammad Abdussalom, Italiya musulmonlari uyushmasi raisi Imom Yahyo Pallavichini, Mo‘g‘uliston muftiysi Batirbek Xadiys bilan ham muloqot qildi. Uchrashuvlarda xorijlik hamkorlar tomonidan so‘nggi yillarda yurtimizda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar alohida e’tirof etildi. Barcha uchrashuvlar iliq va do‘stona ruhda bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston delegatsiyasi sammit doirasida Fuzuliy va Shusha shahridagi bir qator tarixiy maskanlar ziyoratida bo‘ldi.

Anjuman yakunida Jahon diniy yetakchilari global sammiti deklaratsiyasi qabul qilindi. Hujjatda iqlim o‘zgarishlarining oldini olishda hamkorlik, ayniqsa, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini samarali tashkil etish, suvni tejash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish kabi yo‘nalishlarda diniy-ma’rifiy soha xodimlarining targ‘ibot-tashqivot ishlarini yanada jadallashtirish lozimligi ta’kidlandi.

“Jahon dinlari yashil sayyora uchun” shiori ostida o‘tgan yig‘ilishda ishtirokchilar tomonidan quyidagi vazifalar belgilab olindi:

— global iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi kabi umumjahon muammolar sabablarini o‘rganish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarni jadallashtirish;

— iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha jamoatchilik muhokamalarida faol ishtirok etish;

— iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, tabiat va undagi ne’matlarning muqaddasligini keng jamoatchilikka yetkazishda diniy omillardan unumli foydalanish.

Shu bilan birga, diniy yetakchilar ushbu sammit tinchlikni asrash, nizo va ziddiyatlarni to‘xtatish chaqiriqlari uchun foydali hamda samarali platforma bo‘lib xizmat qilishiga katta umid bildirdi.

Xulosa shuki, global iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarni bir yoki ikki davlatning sa’y-harakati bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Bunga barcha davlatlarning hamjihatlikdagi harakati talab etiladi. Kelgusi avlodlar uchun musaffo osmon, go‘zal tabiat va uning bebaho ne’matlarini bekam-u ko‘st yetkazish umuminsoniy burchimiz ekanini unutmasligimiz lozim.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA INSON HUQUQLARI SOHASIDAGI XALQARO MAJBURIYATLARGA SODIQLIK

Mirzatillo TILLABOYEV, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinchi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston ilk marta BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi — ECOSOC hamda Xalqaro mehnat tashkiloti ma’muriy kengashi a’zoligiga saylandi. Shuningdek, O‘zbekiston vakili ilk bor BMT Inson huquqlari qo‘mitasiga a’zo bo‘ldi.

Yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi, turizmni rivojlantirish, qashshoqlikka qarshi kurash va iqlim o‘zgarishi, inson huquqlarini himoya qilish masalalariga bag‘ishlangan yirik xalqaro tadbirlar o‘tkazilmoqda. Xususan, 2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston BMT tuzilmalari, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish masalalari bo‘yicha ham faol hamkorlik qilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi islohotlar va vaziyat bilan tanishish uchun BMT Bosh kotibi A.Guterrish, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari F.Tyurk, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) Bosh direktori J.Ungbo, Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo‘yicha maxsus vakili E.Gilmor, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori M.Mekachchi mamlakatimizga tashrif buyurdi.

O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan shartnomalarning bajarilishi bo‘yicha BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalariga o‘z vaqtida milliy ma’ruzalar taqdim etib kelinmoqda. Jumladan, 2023-yil davomida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarning bajarilishi yuzasidan BMTning shartnomaviy qo‘mitalariga O‘zbekiston Respublikasining:

— Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha birinchi milliy ma’ruzasi;

— Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashga qarshi konvensiya bajarilishi bo‘yicha oltinchi milliy ma’ruzasi;

— Universal davriy hisobot bo‘yicha to‘rtinchi milliy ma’ruzasi taqdim etildi.

O‘zbekiston va XMT o‘rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. XMT bolalar va majburiy mehnatni bartaraf etish bo‘yicha mamlakatimiz tajribasini xalqaro miqyosda o‘rganish va qo‘llash uchun muvaffaqiyatli model sifatida ko‘rmoqda. Tashkilot ko‘magida O‘zbekistonda mehnat sohasida 40 dan ortiq normativ hujjat qabul qilinib, 22 ta xalqaro konvensiya ratifikatsiya etildi. Ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surish bo‘yicha, jumladan, “Ijtimoiy adolat global koalitsiyasi” doirasida qo‘shma chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya: xalqaro majburiyatlar mas’uliyati

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekaniga oid tarixiy ahamiyatga ega norma belgilab qo‘yildi. Ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari joriy qilindi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun butunlay yangi mexanizmlar yaratildi.

Dunyo mamlakatlari konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozir bu huquqlarning 90 tasi mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga kiritilgan. Shundan 40 tasi yangi konstitutsiyaviy huquqlardir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasida rasman “o‘lim jazosi taqiqlanadi”, deb aniq belgilandi. Bu bilan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning Ikkinchi fakultativ bayonnomasi talablari amalga oshirildi.

Birinchi marta qulay atrof-muhit huquqi konstitutsiyaviy darajada ta’minlandi. Mamlakatimiz 2018-yilda Parij kelishuviga qo‘shildi. Ekologik muammolarni hal qilish uchun qator dasturiy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi va 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi qabul qilindi. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashi tashkil etilishi belgilandi.

Uy-joy huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamlash maqsadida “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 10 milliondan ortiq insonning muammolarini hal qilishga yordam beradi va mulk huquqini ta’minlash uchun huquqiy asos yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli” ekani belgilangan. Bundan tashqari, mazkur hujjatda davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, fuqaroga inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi berilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar rolini oshirish, xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar to‘g‘risidagi qoidalar mustahkamlangani muhim demokratik qadamdir. “Bolalar ombudsmani to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Fuqarolarning bepul yuridik yordam olish huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Qonunga ko‘ra, kam ta’minlangan, ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslarga psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilgani to‘g‘risidagi ishlarni sudlarda ko‘rish chog‘ida davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatiladi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatda gender tenglik, so‘z va din erkinligi, qiynoqlarga qarshi kurashishni ta’minlash bo‘yicha aniq choralar ko‘rilmoqda. Ayniqsa, ayollar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan har qanday stereotip va zo‘ravonliklarga barham berishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qiynoq va zo‘ravonlikning boshqa turlari konstitutsiyaviy darajada taqiqlangan. Konstitutsiyaning 26-moddasida qiynoqlar, zo‘ravonlik va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

> **“Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayoni o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilyapti. Maktab o‘quvchilari davlat hisobidan darsliklar va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanadi. O‘zbekistonda 12 tilda televideniye va radio dasturlari efirga uzatiladi, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etiladi.**

O‘ZBEKISTON 2030

> **“Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli” ekani belgilangan. Bundan tashqari, mazkur hujjatda davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, fuqaroga inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi berilgan.**

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Nelson Mandela qoidalari milliy qonunchiligimiz va huquqiy amaliyotga tatbiq etilgan.

Yurtimizda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga muntazam tatbiq etib kelinmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar va loyihalarining gender, inson huquqlari va korrupsiyaga qarshi ekspertizasi amalga oshirilyapti. Inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo‘yicha parlament komissiyasi faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimiz 2021-yilda Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qildi. Uning qoidalari “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi yangi qonunda o‘z aksini topdi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, ularning jamiyatga integratsiyalashuvi, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ravishda qonun ustuvorligini ta’minlash va inson huquqlari hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh etish, advokatura instituti mavqeini keskin oshirish, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish va adliya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur strategiya doirasida inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi chora-tadbirlar qabul qilindi.

Xususan, 2025-yil 1-yanvardan jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi joriy etiladi. Ushbu sudyaga “Xabeas korpus” instituti bilan bog‘liq qator vakolatlar, jumladan, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llash, ularning muddatini uzaytirish, murdani eksgumatsiya qilish, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash, tintuv o‘tkazish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, mol-mulkni xatlash vakolatlari berilmoqda. Shuningdek, sudya ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, tibbiy muassasaga joylashtirish, qamoqda saqlash muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish kabi majburlov choralarini ham qo‘llashi mumkin.

Inson huquqlari madaniyati va bag‘rikenglik

Davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda millatlararo, dinlararo totuvlikni mustahkamlashdir. Xususan, Konstitutsiyamizning 19-moddasi asosida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi kafolatlanadi.

Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. Dunyoda Xalqaro do‘stlik kuni deb e’lon qilingan 30-iyul sanasi mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kuni deb qabul qilingan va o‘ziga xos bayram sifatida keng nishonlanadi.

Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashab kelmoqda. Shuningdek, 157 ta milliy-madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayoni o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilyapti. Maktab o‘quvchilari davlat hisobidan darsliklar va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanadi. O‘zbekistonda 12 tilda televideniye va radio dasturlari efirga uzatiladi, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etiladi.

Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Shu bois, inson huquqlarini himoya qilish va ta’lim samaradorligini oshirish, shuningdek, BMTning inson huquqlari bo‘yicha Jahon dasturining to‘rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni bajarish bo‘yicha ishlar faol davom etmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim milliy dasturi amalga oshirilmoqda. Kasb-hunar va oliy ta’lim tizimida “inson huquqlari”, “ayollar huquqlari”, “bolalar huquqlari” o‘quv kurslari joriy etilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha qo‘llanma va risolalar nashr qilinib, bu boradagi ta’lim uchun elektron platforma ishga tushirildi.

Hozir inson huquqlarini hurmat qilishni ta’minlashda biznes tuzilmalari bilan tajriba almashish va muloqotni yo‘lga qo‘yish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, har yili 20-avgustda Tadbirkorlar kuni o‘tkazilib, biznes vakillari bilan doimiy muloqot tashkil etilyapti. Parlament tomonidan Tadbirkorlik kodeksi tayyorlanmoqda. Qolaversa, “Biznes va inson huquqlari” milliy harakatlar rejasini qabul qilish bo‘yicha ham ishlar bajarilyapti.

BMT Bosh kotibining “Inson huquqlari yo‘lida harakatga da’vat” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillari va normalari to‘g‘risidagi bilimini oshirish maqsadida mamlakatimizda o‘tgan yili Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Joriy yilda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida konvensiya qabul qilinganining 45 yilligini, Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlariga qarshi konvensiya qabul qilinganining 40 yilligini va Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilinganining 35 yilligini nishonlash choralari ko‘rilmoqda.

Shu yil iyunda Samarqand shahrida “Ekologik tahdidlar: o‘zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash” mavzusida inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi forum o‘tkazildi. Qadimiy va hamisha navqiron shaharda an’anaviy tashkil etilayotgan ushbu nufuzli tadbirga allaqachon Samarqand forumi nomi berilgan.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand forumi ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida 2018-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari bo‘yicha birinchi Osiyo forumi jahon amaliyotiga o‘ziga xos “Samarqand ruhi”ni olib kirgani ta’kidlandi. Samarqand shahrida inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag‘ishlangan forumlar o‘tkazish yaxshi an’anaga aylandi.

Yangi O‘zbekistonda saylov tizimi

Joriy yil oktabrida O‘zbekistonda parlament saylovi Konstitutsiyada belgilangan yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda bo‘lib o‘tdi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar tarixda birinchi marta aralash, ya’ni majoritar-proporsional tizim asosida tashkil etildi.

Bunda parlament quyi palatasi deputatlarining 75 nafari bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha majoritar tizim (nomzod uchun ovoz berish), qolgan 75 nafari proporsional tizim bo‘yicha, ya’ni siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida (partiya ro‘yxati asosida) saylandi. Qonunchilikda belgilanganidek, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka ko‘rsatilgan nomzodlardan ayollar 40 foizdan kam bo‘lmasligi shartiga amal qilingani yaxshi natija ko‘rsatdi.

Saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiya mustahkamlagan kuchli parlamentarizm va joylarda vakillik organlari vakolatlari sezilarli darajada kengaygan sharoitda bo‘lib o‘tdi.

Bu jarayonlarda saylov qonunchiligi demokratik standartlarga muvofiq to‘liq takomillashtirilgani muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, Markaziy saylov komissiyasi boshchiligida yangi saylov organlari tizimi joriy qilindi. Shuningdek, deputatlikka nomzod saylanishi uchun saylovchilarning nisbiy ko‘pchiligi ovozini olishi belgilandi. Saylov jarayonini o‘tkazishda “E-saylov” axborot tizimi faol qo‘llanib, ushbu tizim orqali saylov komissiyalarining siyosiy partiyalar, nomzodlar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari bilan deyarli 60 turdagi munosabati to‘liq elektron tarzda amalga oshirildi.

2024-yil 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining o‘ziga xos jihatlaridan biri saylovchilarning fuqarolik mas’uliyati va daxldorlik tuyg‘usi yanada oshgani bilan bog‘liq. Yana bir muhim mezon: fuqarolarning Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovi jarayoniga qiziqishi sezilarli darajada oshgani barcha bosqichi ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik asosida o‘tkazilgan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda yaqqol sezildi.

Shuningdek, parlament saylovlarida aralash saylov tizimining joriy etilishi siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, jamiyatimizdagi demokratik muhitga yangi quvvat bag‘ishlagani saylovoldi tashviqot davomida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bularning barchasi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amaliy ahamiyatidan dalolatdir.

Biror-bir mamlakatda daraxtlar ko‘pligi, birinchi navbatda, ularning hududi kattaligi, tabiati (yog‘in-sochin), suv zaxiralari, bu boradagi qonunchilikka rioya etilishi, eng muhimi, aholining tabiatni asrashga nisbatan qarashlariga bog‘liq.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 9-noyabr, 228-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ekologiya

Rustam BOYTO‘RA,
jurnalist

O‘rmonlar, umuman, daraxtlarning yildan yilga kamayib ketayotgani ham mahalliy, ham global ekologik muammolar sirasiga kiradi. Zotan, davlatlar o‘rtasida chegara bo‘lsa ham tabiatlar oralig‘iga chiziq tortib bo‘lmaydi. Daraxtlarning ayovsiz kesilishi, qurib qolayotgani ekologik vaziyatning buzilishiga olib kelmoqda. Ekologik vaziyat esa shunchaki atama emas. Uni muvozanatda ushlab turish, tabiatni asrash inson salomatligi, tirikligimiz manbai bo‘lgan suv va havo, oziq-ovqat xavfsizligi kabi o‘ta muhim omillarni muhofaza qilish, demakdir.

SHAHAR HAVOSI IFLOSLANISHIGA TOG‘LAR AYBDORMI?

“Odamning tabiatga ta’sir ko‘rsatib, uni o‘z ehtiyojlariga moslashtirishga urinishi Yerning beqiyos keng hududlarida fauna va florani o‘zgartiradi. Tabiat qonunlarini chuqur bilmasdan tabiiy muvozanat buzilishiga sabab bo‘ladigan faoliyat kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin”, deya qayd etilgan ilmiy-qomusiy kitoblarda. Necha o‘n yillar avval aytilgan bu fikr yakunini endi “salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin”, deb emas, “olib keldi”, deb bemalol aytish mumkin.

Zero, antropogen omillar, ya’ni inson va uning xo‘jalik faoliyatidagi noto‘g‘ri qadamlar global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda va uni bartaraf etish oson kechmayapti. Shulardan biri o‘rmonlar, umuman, daraxtlarning hisob-kitobsiz kesilishi, ular o‘rnini to‘ldirish uchun qilinayotgan ishlarning yaxshi samara bermayotgani qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, atmosfera tarkibida chiqindi gazlar miqdorining oshib borishi, kislorod bilan ta’minlanish darajasi susayishi, tuproq eroziyasining yuzaga kelishi, hayvonot va o‘simlik olami turlarining keskin kamayishiga sabab bo‘layotir. Xavotirlisi, bular hammasi xuddi zanjir halqalari kabi bir-biriga uzviy bog‘liq.

***

Sayyoramizda hozir 3 trillion daraxt o‘sib turibdi, deya xabar beradi AQSHdagi Yel universiteti tadqiqotchilari sun’iy yo‘ldosh va o‘rmon xo‘jaliklari ma’lumoti asosida tayyorlagan kuzatuvlariga tayanib. Bu kishi boshiga 400 tupdan ortiq daraxt to‘g‘ri keladi, degani. Ammo siz “O‘ho‘o‘, juda ko‘p ekan”, deya xotirjam tortishga shoshilmang. Chunki bizdan juda olis hududdagi mamlakat o‘rmonlari, daraxtlari o‘zimiz yashayotgan hudud (shahar, qishloq) havosini tozalab, ko‘proq kislorod bilan ta’minlab bermaydi. Qolaversa, har yili juda katta maydondagi o‘rmonlar kesilayotgani yetmagandek, yong‘inlar sabab yanada siyraklashib bormoqda.

Albatta, biror-bir mamlakatda daraxtlar ko‘pligi, birinchi navbatda, ularning hududi kattaligi, tabiati (yog‘in-sochin), suv zaxiralari, bu boradagi qonunchilikka rioya etilishi, eng muhimi, aholining tabiatni asrashga nisbatan qarashlariga bog‘liq.

Tabiiy o‘rmon resurslari ko‘pligi jihatidan Rossiya, Braziliya, Kanada, AQSH va Xitoy yetakchi mamlakatlar sifatida qayd etilgan. Ayni paytda tabiiy ravishda paydo bo‘lgan birorta o‘rmoni yo‘q mamlakatlar ham sanab o‘tilgan. Ammo ular o‘z hududini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt ekib ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratar ekan.

***

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni avvalida bunday qayd etilgan: “So‘nggi yillarda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda. Qimmatbaho navli daraxt va butalar kesilishiga moratoriy joriy qilinishi, daraxt kesganlik holatlari uchun jarima va kompensatsiyalar miqdorining oshirilishi shular jumlasidandir.

Biroq mas’ul tashkilotlarning amalga oshirilayotgan ishlarga sustkashlik bilan yondashishi hamda ayrim shaxslarning o‘simlik dunyosi obyektlariga bo‘lgan tajovuzkor harakatlari, shu jumladan, daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog‘liq holatlar umumekologik vaziyatning yomonlashishiga sabab bo‘lmoqda”.

Shu bilan birga, mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi tatbiq etilishi, daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi tizimni takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilab o‘tilgan.

Xo‘sh, bu borada vaziyat qanday?

O‘rmon xo‘jaligi agentligi ma’lumotiga ko‘ra, bugun o‘rmonlarimiz hududi 11,9 million gektardan iborat bo‘lib, yurtimiz umumiy yer maydonining 26,4 foizini tashkil etadi. 2023-yilda 235 ming gektar maydonda o‘rmon barpo qilish va qayta tiklash tadbirlari bajarilgan, o‘rmon fondi yerlarining foydalanilmayotgan 7012 gektari o‘zlashtirilgan. Orolbo‘yi hududining ekologik barqarorligini ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘istonning Mo‘ynoq tumanida 127,8 ming gektar, Buxoro viloyatida 40,6 ming, Navoiy viloyatida 43,7 ming va Xorazm viloyatida 10,6 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklaridan yashil qoplamalar barpo etilgan.

Ayni ma’lumotlar bu boradagi holat ko‘ngildagidek ekan, degan tasavvur hosil qiladi. Biroq bajarilayotgan ishlar samarasi yo‘qotishlar, ya’ni qurilishlar, yong‘in, suvsizlikdan qurib qolish va boshqa sabablar bilan sanoqdan chiqib ketayotgan daraxt, yashil qoplamalar o‘rnini qanchalik to‘ldiryapti, o‘rtadagi mutanosiblik buzilmayaptimi, degan savollarni paydo qiladi.

Jumladan, keyingi yillarda “Yashil makon” loyihasi doirasida ekilayotgan yuz minglab ko‘chat turli sabablar bilan qurib qolgani haqidagi tashvishli xabarlar ommaviy axborot vositalarida e’lon qilindi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining joriy yilga oid ma’lumotlariga ko‘ra, mas’ullar e’tiborsizligi tufayli respublika bo‘yicha 608 ming tup, jumladan, Toshkent shahrida 321,7 ming, Samarqand viloyatida 96,4 ming, Toshkent viloyatida 66,9 ming, Qoraqalpog‘istonda 61,2 ming, Buxoro viloyatida 23,7 ming, Navoiy viloyatida 15 ming ko‘chat sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan hududlarga ekilgan. Shu sababli ularning katta qismi qurib qolgan.

Bu ilk xatolar emas. Bundan ikki-uch yillar avval ham bu kabi o‘ta noxush holatlar qayd etilgan. Jumladan, 2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumida Toshkent shahri va viloyatidagi tuman (shaharlar), aholi punktlari, xalq xo‘jaligi obyektlari atrofida yashil hudud barpo etish va 1 million tup daraxt ko‘chati ekish rejalashtirilgan edi. Ekilgan 75 ming niholdan 52 ming tupdan ortig‘i qurib qolgan.

Joriy yilgi bahor mavsumida daraxtlarni sug‘orish va parvarishlash ishlarini tashkil etmagan hamda ekilgan ko‘chatlarning ko‘karuvchanligini ta’minlash choralarini ko‘rmagan mas’ullarga nisbatan 8856 ta majburiy ko‘rsatma berilib, talablarni bajarmagan 1604 shaxsga nisbatan 1 milliard 649 million so‘m miqdorida ma’muriy jarima qo‘llandi.

Ko‘chatlarning qurib qolishiga asosan sug‘orish tizimi bo‘lmagan yaroqsiz joylarga ekish, qarovsizlik va suvsizlik, ko‘chat ekishda belgilangan oraliq masofa saqlanmagani sabab qilib ko‘rsatilgan. Lekin qo‘llangan jarima ko‘chat ekish uchun sarflangan mablag‘ o‘rnini qaysidir ma’noda qoplar, ammo vaqtni ortga qaytara oladimi?

O‘rmonlar, umuman, daraxtlarning tez va katta ko‘lamda kesilishi o‘sha hududdagi o‘simlik va hayvonot olamining ayrim turlari yo‘qolib ketishiga, ekologiya, birinchi navbatda, o‘zimiz nafas olayotgan havoning kuchli ifloslanishiga olib keladi. Bu, ayniqsa, transport vositalari kun sayin ko‘payib borayotgan bir paytda yanada yaqqol sezilayotir.

Daraxtni ko‘paytirish, ko‘kalamzorlashtirish shahar sharoitida juda ham zarur: atmosferadagi karbonat gazi miqdorini kamaytirib, havoni tozalaydi, harakatdagi ko‘p sonli avtomobillar shovqinini pasaytirib, inshootlarni chang va shamoldan himoyalaydi. Havo namligini saqlaydi, ochiq havoda dam olish uchun qulay sharoit yuzaga keltiradi. Yashillikka burkangan atrof-muhit insonning asab tizimiga tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Toshkent shahrida atmosfera ifloslanishiga ta’sir etayotgan omillarni sanab o‘tdi. Xususan, poytaxtda atmosfera ifloslanish darajasi ortib borayotganiga tabiiy va antropogen omillar sabab bo‘layotgani qayd etilgan.

Jumladan, daraxt va butalar kesilishiga qarshi e’lon qilingan moratoriy davrida 49 mingga yaqin daraxt noqonuniy kesilgan. Shaharsozlik bosh rejalari tasdiqlanmay, qurilish ishlari betartib amalga oshirilmoqda.

Transport vositalarining ekologik tozalik darajasi foydalanilayotgan yonilg‘i va yo‘l harakatini tashkil etish sifatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda deyiladi vazirlik ma’lumotida. Respublikamiz bo‘yicha avtomobillar soni 2021-yilda 3,14 milliontani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 4 million 600 mingtaga yetgan.

Bugun Toshkent shahrida bir kunda o‘rtacha 730 mingta avtotransport harakatlansa, qo‘shimcha ravishda hududlardan 160 mingdan 300 mingtagacha avtotransport kirib-chiqadi. Xalqaro standartlarga to‘g‘ri kelmaydigan A-80 markali benzindan foydalanayotgan texnika vositalari esa atmosferaga me’yoridan ortiq zararli tashlamalar chiqaryapti deb qayd etadi vazirlik.

Shu bilan birga, shaharlarda transport va piyodalar oqimining kesishmalari soni kamaytirilmagan, magistrallardagi yuklama darajasi pasaytirilmagan, transport oqimi tarkibini, tezlik rejimini tartibga solish sikli optimallashtirilmagan, yo‘l harakati to‘g‘ri tashkil etilmagan. Natijada Toshkent shahrida tirbandliklar ko‘p kuzatilmoqda. Tirbandlikda to‘xtab turgan avtomobil esa harakatlanayotgan transportga nisbatan atmosferaga ko‘proq tashlama chiqaradi.

Muammoning yuzaga kelishi, kuchayishi bir-biriga zanjirdek bog‘lanib ketganini quyidagi faktlar tasdiqlaydi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga talabi ortishi natijasida uglevodlardan, jumladan, ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanish hajmi ortmoqda. Qiyoslash uchun: 2019-yilda 3,9 million tonna ko‘mir ishlatilgan bo‘lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu raqam 5,3 million tonnani tashkil etdi. Bu faktga alohida e’tibor qaratishdan maqsad shuki, ko‘mir qazib olish, tashish va foydalanish jarayonlarida undan chiqadigan zararli moddalar atmosfera, tuproq va suv resurslari ifloslanishiga olib kelayotir. Tasavvur qilishingiz uchun keltirib o‘tamiz: 10 tonna ko‘mir yoqilganda atmosferaga 220 kilogramm qurum, 360 kilogramm oltingugurt oksidi, bundan tashqari, uglerod oksidi va kul chiqindisi ajralib chiqadi. Shu bilan birga, issiqlik markazlari tomonidan qo‘shimcha yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanilayotgani ham havo ifloslanishini kuchaytiradi.

Poytaxt havosi musaffoligini saqlashda yana bir murakkab jihat bor. Toshkent tog‘lar bilan o‘ralgani va chuqurlikda joylashgani sababli shamol yaxshi aylanmasligi hisobiga chang oqimi shaharda dimlanib qolayotir deb ta’kidlanadi ma’lumotda.

Yurtimiz havosini muhofaza qilish bo‘yicha katta maqsadlar belgilangan va dastlabki qadamlar tashlangan. Jumladan, sanoat korxonalarida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilib, mavjudlari rekonstruksiya va modernizatsiya qilinadi. Korxonalar joylashgan hududlarda atmosferani ifloslantiruvchi manbalarni kuzatish, nazorat qilish postlari, monitoring yuritish uchun avtomatik stansiyalar o‘rnatiladi. Bu, albatta, muammoni bartaraf etish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirish imkonini beradi.

Respublikamizdagi barcha daraxt raqamlashtirilib, xatlovdan o‘tkazilayotgani, Toshkent shahrida esa sinov tariqasida daraxtlar pasportlashtirilishi ham reja va maqsadlar aniqligidan dalolat beradi. Eng muhimi, ularni o‘z muddatida, sifatli va albatta, samarali amalga oshirishda. Aks holda, yurtimiz tabiatini asrashga oid qarorlar hamda belgilangan vazifalar ijrosi xuddi noqonuniy kesilgan daraxtlar, qurib qolgan ko‘chatlar kabi holatga tushib qolmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Ana unda havo ifloslanishi sabablari qatoriga shaharning tog‘lar bilan o‘ralganini qo‘shish ham o‘zini oqlay olmaydi. Tabiat biz yashayotgan makon, vatanimiz qiyofasi. Zero, hikmatlarda ta’kidlanganidek, “Tabiatni asrash vatanni asrash demakdir”.

O‘rmonchilik

UZOQ UMR KO‘RUVCHILARNING SIRLI MANZILI

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir ma’lumotga ko‘zim tushdi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) ma’lumotiga ko‘ra, ayni paytda dunyo bo‘yicha daraxtlarning 38 foizi yo‘qolib ketish arafasida. Daraxtlarning kamayishi minglab boshqa o‘simliklar, zamburug‘lar va hayvonlar uchun katta xavf mavjudligini ko‘rsatadi. Daraxtlar uglerod, suv va ozuqa moddalarining aylanishi, tuproq shakllanishi va iqlimni tartibga solishdagi o‘rni orqali yerdagi hayot uchun asosiy manbadir. Ammo daraxtlar populyatsiyasiga bevosita inson omili ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, mazkur tashkilot ro‘yxatiga kiritilgan 5000 dan ortiq daraxt turi qurilishda yog‘och uchun, 2000 dan ortiq turi esa dori-darmon, oziq-ovqat va yoqilg‘i sifatida ishlatilar ekan.

...Hamrohim — 40 yildan buyon daraxtlar bilan “tillashib” kelayotgan tajribali o‘rmonchi, seleksioner Subhon Abdusalomov bilan shahardan chiqqanimizdan keyin ancha yo‘l yurgach, Samarqand viloyatidagi “Darg‘om” o‘rmon xo‘jaligiga qarashli daraxtzor uzun va mahobatli bo‘lib ko‘zga tashlana boshladi.

Ko‘p yillik va navnihol archa, qarag‘aylardan taralayotgan ifor kishida ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bunday yoqimli bo‘y insonda baxt garmoni ishlab chiqarilishiga sabab bo‘larkan. Bu esa immun tizimining yaxshilanishi, odamning yasharishiga olib keladi. Balki shuning uchundir o‘rmonchilik sohasi vakillari uzoq umr ko‘ruvchilar toifasiga kiradi.

— Ushbu o‘rmonning gektari bir yilda 14 tonna kislorod chiqarib, 35 tonna changni ushlab qolishga qodir. Shu bilan birga, 25 gektar maydonni qurg‘oqchilik va chang bo‘ronidan himoya qila oladi, — deydi Subhon Abdusalomov. — Yaqinda Prezidentimiz raisligida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakatimizda har yili 200 million daraxt va buta ekib, yashillikni 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish kerakligi ma’lum qilindi. Bunday chora-tadbirlar orqali iqlim o‘zgarishi tufayli tez-tez sodir bo‘layotgan bo‘ronlar, cho‘llanishlar bartaraf etiladi.

Hamrohimning aytishicha, mazkur o‘rmon xo‘jaligiga 1890-yillarda asos solingan. Bu yerdagi qarag‘aylar 70 darajali sovuqqa ham chidaydi, yomg‘irni yaxshi ko‘radi. O‘sish davrida o‘zidan efir moyi, balzam, uchuvchi vitamin, tanin va boshqa moddalar chiqaradi. Demak, o‘rmonga qadam qo‘yishimiz bilan biz his etgan xush kayfiyat ana shu foydali moddalar tufaylidir.

— Daraxtlarni jonsiz deguvchilar katta xato qiladi. Ularda ham dard bor, ozor berilsa, og‘rinadi, ovoz chiqaradi, — deya Subhon Abdusalomov o‘rmondagi ba’zi daraxtlarga qo‘yilgan belgilarni ko‘rsatdi. — Mana bu belgilar onalik va otalikni bildiradi. Shunga qarab ulardan urug‘ olamiz. Ko‘chat yetishtirish jarayonida qiziq holatlarni kuzatganmiz. Archa, qarag‘ay ko‘chatini urug‘dan o‘stiramiz. U besh, ba’zan yetti yilda tayyor ko‘chat bo‘lib yetiladi. Yonma-yon o‘sayotgan nihollarning yoniga boshqa yangisini olib kelib qo‘ysangiz bormi, ana unda ko‘ring tomoshani. Bu holatda avvalgi ko‘chatlarning avji keskin pasaya boshlaydi.

O‘rmondan sal nariroqda maxsus ko‘chatxonalar mavjud. Ularda ko‘plab daraxtlarning urug‘idan nihollar yetishtiriladi. Hozir o‘rmon xo‘jaligida qirq turdan ortiq noyob daraxt va butaning ko‘chati ko‘paytirilyapti. Ular orasida oq qayindan tortib, moviy qarag‘ay, lola daraxti, Tyanshan qarag‘ayi, Xitoydan keltirilgan pavlovniya, yapon saforasi va qalam daraxtigacha bor. Bularning barchasi — tabiatimiz uchun, ekologiya uchun. Darvoqe, atigi sakkiz yilda ulkan daraxtga aylanadigan pavlovniyaning xosiyati ko‘p. Uning yog‘ochi nafis, pishiq, jilvador bo‘lgani bois, mebelsozlikda ko‘p ishlatiladi. Bargi yirik, zararli gazlarni yutib, kislorodni ko‘p ajratadi. Chiroyli gullarida nektar miqdori odatdagidan ikki-uch hissa ortiq bo‘lgani bois, asalarilarni o‘ziga chorlaydi. Pavlovniyani shahar atrofidagi yo‘l yoqalarida ekib, o‘stirish ajoyib samara beradi.

Bu manzarali go‘shada faqat daraxt ko‘chati emas, meva yetishtirish, asalari parvarishlash, dorivor giyohlarning gul va barglarini yig‘ish bilan shug‘ullanishadi. O‘tgan yili o‘rmonchilar farmatsevtika sanoati uchun 42 tonna dorivor o‘simlik va noyob meva yetishtirib beribdi. Ular orasida unabi, topinambur, tirnoqgul, moychechak, na’matak singari shifobaxsh o‘simliklar bo‘lib, inson salomatligi uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda katta biznes egalariga bir taklif: yurtimizda yetishtirilayotgan bebaho, shifobaxsh bu kabi ne’matlar qadoqlanib, xorijga eksport qilinsa, jahon bozorida xaridorini, albatta, topadi.

Subhon aka suhbatimizni seleksiya mavzusiga qaratib, mahalliy o‘rik navlari yo‘qolib ketayotganini kuyinchaklik bilan gapirib qoldi:

— Shaftolilarning “Jahongir”, “Lola”, “Farhod”, olmaning “Razmarin”, “Afrosiyob”, “Qandil” degan navlari bo‘lardi. Bahorgacha suvi qochmay turardi, hozir yo‘qolib ketdi. Shuning uchun bozorlarimizga ko‘p meva chetdan kirib kelyapti. Ko‘pining chiroyi bor, ta’mi yo‘q. Prezidentimiz o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida urug‘ olish uchun o‘rmon xo‘jaliklaridan sog‘lom onalik plantatsiyasini tanlash orqali yiliga 1,5 ming tonna urug‘ tayyorlanishi, Janubiy Koreya tajribasi asosida suvsizlikka chidamli, iqlim sharoitiga mos yopiq ildizli konteyner va invitro usulida 2 million ko‘chat yetishtirish tizimi yo‘lga qo‘yilishi belgilab berildi. Buni mamnuniyat bilan qabul qildik. Albatta, endi ko‘chatchilik sohasiga joriy etiladigan bunday innovatsiyalar, yangiliklar bozorlarimizda hosildor va shirador meva turlari ko‘payishini anglatadi.

...O‘rmondan olislay turib, uch asrni ko‘rayotgan bu daraxtlar, qanchadan-qancha daydi shamollarga, chang-to‘zonlarga qalqon bo‘lganini anglayman. O‘rmonlar, yashil manzillar bor ekan, yana ming yillar ular insoniyatga beminnat xizmat qilib, o‘pkamizga sof havo, qalbimizga halovat ulashaveradi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Bugun ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizning ertangi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy mezondir. Boisi, talabalarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kadrlar salohiyatini belgilaydi.

TANNARX MUHANDISLIGI

ILG‘OR TEXNOLOGIYALARNI O‘ZLASHTIRISH OMILLARI

Nuqtayi nazar

Oxirgi yillarda dunyo ilm-fani shiddat bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, insoniyat texnologiya sohasida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bugun har bir davlatning rivojlanish darajasi ishlab chiqarish, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy sohadan tortib, mamlakat mudofaa sektorigacha yuqori texnologiyalarning qay darajada tatbiq etilganiga bog‘liq. Bu rivojlangan davlatlarning yalpi ichki mahsulotida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. So‘nggi besh yillikda dunyoda bo‘layotgan geosiyosiy jarayonlar va harbiy nizolarda ham yuqori texnologik qurilmalarning o‘rni alohida ko‘zga tashlanmoqda.

Abdug‘affor JO‘RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Albatta, yuqoridagi omillar asosida mamlakatimizda ham bu sohada katta ishlar qilinmoqda. Barcha sohaga ilm-fanga asoslangan yuqori texnologiyalarni joriy etish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish bo‘yicha ishlar bajarilmoqda. Ayniqsa, elektr energiyasini ishlab chiqarish, raqamlashtirish borasida katta ishlar qilindi. Yurtimizda mazkur sohadagi islohotlar bevosita kadrlar salohiyati bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi yangilanishlarni mehnat bozori uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, shuningdek, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasini malakali oliy ma’lumotli mutaxassislar bilan ta’minlash borasidagi keng ko‘lamli islohotlarda ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab xususiy oliy o‘quv yurtlari va xorijiy universitetlar filiallari tashkil etilishi agrar ta’lim tizimida bozor mexanizmlari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Ushbu jarayonda agrar ta’lim muassasalari qishloq xo‘jaligi sohasi uchun yetakchi kadrlar manbai sifatidagi mavqeini saqlab qolishi zarur. Shu bois, boy tarixga ega va mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi rivojiga katta hissa qo‘shib kelayotgan agrar ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi muassasalar bozor mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy ta’lim muassasalari sifatida tan olinish uchun yetarli shart-sharoitga ega.

Prezidentimiz joriy yil 20-iyunda “Inno” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparkiga tashrifi chog‘ida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ham asosiy e’tibor yuqori texnologiyalar sohasiga qaratildi.

Mamlakatimiz rahbari yurtimizda ilm, ta’lim va innovatsiyaga e’tibor tubdan o‘zgarganini ta’kidladi. Masalan, o‘tgan to‘rt yilda 1727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihaga 2,2 trillion so‘m yo‘naltirilgani, shundan muhandislik-texnika yo‘nalishidagi 176 ta loyihaga 152 milliard so‘m ajratilganini aytib o‘tdi. Shunga qaramay, oliygohlar fundamental tadqiqotlar o‘tkazish bilan cheklangani, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kamligi qayd etildi. Qisqasi, bu sohadagi ishlar hozirgi tezkor davr talablariga javob bermasligi ochiq aytildi. Prezidentimiz muammoning sabablariga ham to‘xtalib, oliygoh bilan sanoat o‘rtasida uzilish borligi, rektorlar korxonalarga borib, yangi texnologiyalar bilan tanishmayotgani, uskuna va dastgohlarni o‘rganmayotgani, hokim va vazirlar esa o‘rtada ko‘prik bo‘lib, buni tashkillashtirmayotgani haqida qat’iy e’tiroz bildirdi. Shuningdek, yurtimizda yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, ularda 150 ming atrofida ish o‘rni yaratilayotgani ta’kidlandi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari yana bir jihatga urg‘u qaratdi. Bugun butun dunyoda sanoatda tannarxni kamaytirish masalasi juda dolzarbligi, xorijiy oliygohlarda “tannarx muhandisligi” degan fan borligi, hatto kadrlar tayyorlanishini ta’kidladi. Biroq mamlakatimizdagi birorta texnika oliygohida bu yo‘nalishlar yo‘qligi afsus bilan qayd etildi. Natijada mahalliy sanoat tarmoqlari katta mablag‘ sarflab, ishchilarini xorijda o‘qitishga yoki chetdan mutaxassis olib kelishga majbur bo‘layotgani qo‘shimcha qilindi.

Mutasaddilarga vaziyatni o‘nglash bo‘yicha qator topshiriqlar berildi. Jumladan, xorijdagi oliygohlar tajriba ishlab chiqarish korxonalarini (spin-off) ochib, davlat va ishlab chiqaruvchi mablag‘larini jalb qilish, tadqiqot o‘tkazish, innovatsion mahsulot yaratib, tijoriylashtirish zarurligi aytildi. Mehnat bozorida talab yo‘q mutaxassisliklarni qisqartirish, kafedralarni birlashtirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Oliygohlar to‘liq dual ta’lim tizimiga o‘tkazilishi, fanlar kamida 30 foizga qisqartirilishi belgilandi. Shuningdek, barcha muhandislik oliygohlari hamkor korxonalarida kafedralar ochilishi va dual ta’lim yo‘lga qo‘yilishi, mazkur korxonalar kafedralarni jihozlashi, o‘qituvchi va talabalarni rag‘batlantirishga har yili mablag‘ berilishi ma’lum qilindi.

Yanada samarali foydalanish maqsadida zamonaviy bilimlar va intellektual kapitalni boshqarish muammolari so‘nggi yillarda birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Ayrim tashkilotlar nazariyasi va amaliyotida bilimga boshqaruv obyekti sifatida qaralishi lozimligini tan olish tendensiyasi kuzatilmoqda. Korxonalarning raqobatbardoshlik darajasiga bilimlarni shakllantirish, jamlash va rivojlantirish, ular negizida innovatsiyalar yaratish, oxir-oqibatda raqobat sohasida barqaror ustunlikka erishish imkoniyati kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, yangi O‘zbekistonda asosiy maqsad ta’lim jarayonini rivojlantirish va sifat bosqichiga olib chiqish, mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash, o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, ilm-fanning yangi yutuqlarini amaliyotga kiritish, mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish yuzasidan ijobiy o‘zgarishlarga qaratilgan.

Mazkur sohadagi ishlar va islohotlarni yanada chuqurlashtirish, amaliy natijalarini qo‘lga kiritish uchun qator jihatlarga ham e’tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi, nazarimizda. Jumladan:

— texnika va agrar soha uchun kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini pedagogik-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish agrar ta’lim muassasalari va uning filiallari tuzilmalarida kadrlar tayyorlash va ishga joylashtirishni monitoring qilish uchun maxsus bo‘limlar tashkil qilish;

— mazkur yo‘nalishdagi ta’lim muassasalari faoliyatiga ta’sir etuvchi va hamkorlikdagi muammolarni yechishda boshqaruv uslublarini zamonaviylashtirishni yo‘lga qo‘yishda rahbar kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini ochish;

— ish beruvchi tashkilotlar tomonidan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha zarur bilim va malakaga ega kadrlar uchun yil davomida tanlovlar e’lon qilish. Tanlov yakunlari bo‘yicha ishga qabul qilingan kadrlarni malaka oshirish, qayta tayyorlash hamda ish haqi bilan ta’minlash masalalarini hal qilish;

— muhandislik, texnika va agrar ta’lim muassasalari moliyaviy mustaqilligini inobatga olgan holda, to‘lov-kontrakt miqdori mustaqil belgilanishi, dual ta’lim tizimida ishlash bo‘yicha tasdiqlangan yagona tartib va nizom ishlab chiqilishini tezlashtirish;

— Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan hamkorlikda qishloq xo‘jaligi uchun ishchi kasblari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda kasblar klassifikatorini takomillashtirish va kasbiy mutaxassislik standartlarini ishlab chiqish;

— soha bo‘yicha joriy qilinayotgan investitsiya loyihalari tarkibida qoida tariqasida ular umumiy qiymatining kamida 2 foizigacha bo‘lgan miqdorda ta’lim komponenti bo‘lishini ko‘zda tutish, bu mablag‘ni markazlashgan holda pedagog xodimlarning ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganishi, moddiy-texnik bazani modernizatsiyalash, yangi avlod o‘quv darsliklarini maqsadli yaratishga yo‘naltirish;

— Oliy ta’limni 2020-2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar, jumladan, professor-o‘qituvchilarning talabalar soniga nisbati o‘zgartirilishi, ta’limning kredit-modul tizimi joriy etilishi munosabati bilan ular sonining maqbullashtirilishi sababli bir guruh oliy ta’lim xodimlarini o‘rta maxsus ta’limga jalb qilish uchun zarur motivatsiya berish maqsadida belgilangan ish haqi to‘lash tizimini saqlab qolish hamda joylarda ijtimoiy imtiyoz (arzon uy-joylar ajratish, imtiyozli kreditlar yoki lizing asosida avtomashinalar)lar berish.

Bugun ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatimizning ertangi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy mezondir. Boisi, talabalarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kadrlar salohiyatini belgilaydi.

Ish bilganga ming tanga

Mo‘jazgina hovli. Aniq hisob bo‘yicha aytilsa, nari borsa, to‘rt sotixdan oshmaydigan tomorqa. Lekin bu yerdagi daraxtlar hosilini ko‘rgan kishining havasi keladi. Bir tomonda qirmizi olmalar, ikkinchi tomonda har biri naq ikki kilo tosh bosadigan anorlar. Nokdan tortib, mazasi til yoradigan anjirgacha, qor tushgunga qadar vayishda osilib turadigan shirin-shakar husayni uzum, saqlasa, ko‘klamga qadar turadigan xurmogacha topish mumkin.

BIR MAVSUMDA 300 MILLION SO‘M FOYDA

YOSH O‘QITUVCHI MO‘MAY DAROMAD TOPMOQDA

Husniddin har safar bobosiga ergashib, shu mo‘jaz bog‘ oralashni yoqtirardi. Boisi, oppoq soqoli o‘ziga yarashib turgan nuroniy qo‘liga qaychi olib ishga kirishdimi, albatta, nabirasiga daraxtlar bilan “tillashish” haqida so‘z ochadi. Qaysi biriga qanday ishlov berishni bir boshidan gapirib beradi. Nabirasi zerikmasligi uchun daraxtlarga so‘z ochib, ulardan javob olganday bo‘ladi. Bola tilida gapirishga harakat qilib, iloji boricha yosh hamrohiga o‘rgatayotganlari qalbiga qadar yetib borishini istaydi. Bundan hayratlangan bolakay qanday qilib nihollarning tilini tushunish mumkinligini bilishga qiziqadi. Har gal bobosini savolga tutib, buning sirini o‘rgatishni so‘rab, injiqlik qiladi. Bundan zavqlangan mo‘ysafid tabassum qilgancha, aslida, bu oson emasligini, buning uchun ancha ter to‘kish lozimligini uqtiradi.

U paytlar Husniddin olti-yetti yoshlar atrofida bo‘lsa-da, bobosining so‘zlarini unchalik tushunib-tushunmas, lekin har birini xotirasiga muhrlab borishga intilardi. Ayniqsa, payvandlash davri kelganda bobosidan bir qadam ham ajralmasdi. Otaxonning har bir xatti-harakatiga diqqatli bo‘lish, o‘sha joyning o‘zida shu ishni o‘zi ham takrorlab, xatosini undan so‘rab to‘g‘rilab ketishga chog‘lanardi.

Payvand qilgan novdalari nish urib, ko‘klaganida quvonchi ichiga sig‘masdi. Ilgari bobomning qo‘li sehrli bo‘lsa kerak deb o‘ylab yurardi. Keyinchalik bu “sehr” o‘ziga ham o‘tganidan mamnun bo‘ldi. Payvand qilgan har bir niholiga e’tiborli bo‘lib, parvarishlar edi. Hosilga kirganida esa undan baxtli odam bo‘lmasdi.

Husniddin voyaga yetib, oliygohga o‘qishga kirdi. Faol talabalar qatori o‘qishni tamomlab, Kitob tumanidagi o‘zi tug‘ilib o‘sgan Halovat qishlog‘ida joylashgan 26-maktabga ishga joylashdi. Yosh o‘qituvchiga ajratilgan dars soatlari uncha ko‘p emasdi. Oylik ham shunga yarasha chiqardi. Avvaliga maosh kamligi deyarli sezilmadi. Keyinchalik oila qurib, ro‘zg‘or tashvishlari ortib boravergach, ayrim yetishmovchiliklar ko‘zga tashlana boshladi. Maktabdan oladigan maoshi esa kamlik qilardi. O‘ylab ko‘rsa, darsi yo‘q kunlari vaqti behuda ketayotgan ekan. Bundan tashqari, boshqa kunlari ham tushdan so‘ng kechga qadar ancha ish qilish mumkin. Lekin nima bilan mashg‘ul bo‘lish kerakligi haqida boshi qotardi. Avvaliga chorvachilik bilan shug‘ullanib ko‘rishga ahd qildi. Bu ham oson bo‘lmadi. Sababi chorvachilikdan umuman xabari yo‘q edi. Shunday kunlarning birida otasi bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib ko‘rishni maslahat berdi. Bolaligida bu borada yaxshi tajriba to‘plaganini yodiga soldi. Bobosidan o‘rganganlarini bugun amalda qo‘llash vaqti kelganini ta’kidladi. Bu yosh o‘qituvchiga ham ma’qul keldi.

Erta bahorda hovlisiga turli daraxtlar niholini qadab chiqdi. Bir chetga esa issiqxona uchun joy ajratdi. Payvandlash vaqti kelgach, ekkan daraxtlariga sarxil mevali daraxtlar novdasini payvandlashga kirishdi. Payvandlangan har bir niholni e’tibor bilan parvarishlay boshladi. Maktabdan qaytishi bilan tomorqaga yo‘l olib, ishga kirishadigan bo‘ldi. Tez orada yangi novdalar kurtak yoza boshladi. To‘g‘ri, hammasi birdek tutib ketmagan bo‘lsa-da, boshlanishi yomon emasdi. Kamchiliklarini keyingi safar to‘g‘rilab ketishga bel bog‘ladi. Bu orada uch sotix yerda issiqxona qurdi. U yerda boshqalarnikida kam uchraydigan sitrus mevali ko‘chatlar ekdi. Dastlabki yili bir chetiga limon, keyingi yili mandarin, apelsin ekib chiqdi. Lekin bularni parvarishlashni tajribali bog‘bonlardan maslahat olib, turli adabiyotlardan o‘qib chiqib, o‘rganishga harakat qildi.

Oradan uch yil o‘tib, issiqxonadagi daraxtlari hosilga kirdi. Payvand qilingan nihollar ancha bo‘y ko‘rsatib, endi bemalol bozorga chiqarishga tayyor holga kelgandi. Birinchi yili ko‘chat savdosi bilan shug‘ullangani bois, ancha harakati sust edi. Lekin topgan daromadi chakki bo‘lmadi. Kuz kelgach, issiqxonadagi hosilga xaridorlar kela boshladi. Bundan ham ancha mablag‘ ishlab topdi. Ma’qul jihati, issiqxonadagi mevalar to bahorga qadar hosil berib, ro‘zg‘orga foydasi tegib turdi. Bundan kuch olgan yosh o‘qituvchi ko‘proq mehnat qiladigan bo‘ldi.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, uch sotixli tomorqa ko‘chatchilikka torlik qilib qoldi. Husniddin boshqa joydan yer olib, ishini yanada kengaytirish harakatiga tushdi. Otasi bilan maslahatlashib, “Shavkat Hazratovich” ko‘chatchilik fermer xo‘jaligini tashkil etdi. Ikki gektar yer olib, ishlaydigan bo‘ldi.

— Mehnat qilgan kam bo‘lmaydi, — deydi Husniddin Hazratov. — Bugun har bir sohada rivojlanishni kuzatish mumkin. Qaysidir sohada shug‘ullanib, o‘zini sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan kishiga imkoniyat keng ochilgan. Faqat harakat qilsa bo‘lgani. Bobom o‘z vaqtida katta bog‘bon bo‘lgan. Bir paytlar kichik hovlisida turli mevali daraxtlar o‘stirib, shuning ortidan ro‘zg‘or tebratgan. Men ham u kishidan ancha narsa o‘rganib qolganim bugun ish beryapti. Maktabda o‘qituvchilik qilish bilan birga bog‘dorchilikni yo‘lga qo‘yib olganman. Birgina ish bilan cheklanib, oilamda yetishmovchiliklar ko‘payib ketdi deb nolib o‘tirganim bilan muammomni birov hal qilib bermaydi. Shukr, mehnatim ortidan daromad topyapman. Bundan tashqari, jismoniy harakat salomatlik uchun juda foydali. Har kuni maktabdan qaytib, bog‘ oralayman. Bir zumda barcha charchog‘im unutiladi. Nihollarga qarab, ko‘zim quvnaydi.

Yosh bog‘bon ikki gektarda ko‘chatchilikni boshlaganiga ham besh yilga yaqinlashib qoldi. U yetishtirgan nihollar hozir yurtimizning turli hududlarini yashillikka burkanishiga hissa qo‘shib turibdi. Aynan shu fermer xo‘jalikning o‘zida yiliga 30 ming tupga yaqin ko‘chat savdoga chiqariladi.

— Hozir bog‘imizda 40 mingga yaqin mevali daraxt mavjud, — deydi Husniddin Hazratov. — 10 mingdan ortiq manzarali daraxt va yana shuncha tok niholi bor. Shu bilan birga, 10 mingga yaqin turli navdagi gul ko‘chatlari ham yetishtirganmiz. Ayni paytda gul ko‘chatlari sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Daraxt nihollarini savdoga chiqarishga hali bir oz vaqt bor. Joriy mavsumda yigirma mingdan ziyod mevali daraxt ko‘chati sotishni rejalashtirib turibmiz. Hozirdanoq Jizzax, Samarqand va Toshkent viloyatlaridan xaridorlarimiz buyurtma bera boshladi. Mavsum boshlangach, ularga yetkazib berishga kirishamiz.

Yosh bog‘bon tomorqasidagi issiqxonasidan ham yaxshigina daromad olyapti. Xususan, issiqxonadagi turli noyob gul, limon, mandarin, apelsin ko‘chatlari ancha xaridorgir. Shu bilan birga, issiqxonaning bir qismida qishki paytda ismaloq, shivit, piyoz kabi ko‘katlar yetishtirilmoqda. Bir qaraganda oddiy ko‘ringan aynan shu ko‘kat yetishtirishdan ham kattagina daromad olish mumkinligini Husniddin ayrim hamkasblariga uqtirib keladi.

Payvand qilingan nihollari savdosidan esa joriy mavsumda yosh o‘qituvchi kamida uch yuz million so‘m daromad olish arafasida. O‘tgan yilgi mavsumda foydasi ikki yuz million so‘mdan oshgani uni yanada ko‘proq mehnat qilishga undagandi. Demak, tez orada Husniddinning ko‘chat bozori avj oladi. Bu esa unga daromad olib kelish bilan birga, eng muhimi, yurtimizning ko‘plab hududlarini yashil makonga aylantirishga oz bo‘lsa-da, hissa qo‘shadi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ustoz degan ulug‘ zot ta’rifini bayon qilishga bisotimizdagi eng sara so‘zlar ham ozlik qiladi. Ular mehnati bekorga quyosh taftiga qiyoslanmaydi. Oftob nurini borliqqa qancha sochmasin, tugamaydi va evaziga hech birimizdan hech narsa talab etmaydi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 9-noyabr, 228-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Davr ruhi

TEATRDA ZAMON NAFASI:

MUALLIM — BOSH QAHRAMON

Teatr san’atida nima uchun zamon qahramonlari yaratilmayapti? Axir yurtimizda xalqi, millati, eli uchun jonini berishga tayyor, kuyib, yonib yashayotgan insonlar ko‘p-ku.
Prezidentimizning shu ma’nodagi o‘rinli e’tirozi barcha teatr ijodiy jamoalarini o‘ylab ko‘rishga, repertuarini yangi, ta’sirchan spektakllar bilan boyitishga undamoqda.
Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali drama teatrida sahnalashtirilgan “Bizga maktab kerak yoxud zamon Avloniysi” spektakli, ta’bir joiz bo‘lsa, aynan shunday g‘oyani o‘zida mujassam etgani bilan davlatimiz rahbari qo‘ygan talabga javob beradi deb o‘ylayman.

Shahribonu IMOMOVA,
jurnalist

Ustoz degan ulug‘ zot ta’rifini bayon qilishga bisotimizdagi eng sara so‘zlar ham ozlik qiladi. Ular mehnati bekorga quyosh taftiga qiyoslanmaydi. Oftob nurini borliqqa qancha sochmasin, tugamaydi va evaziga hech birimizdan hech narsa talab etmaydi. O‘qituvchi ham xuddi shunday: ko‘z nurini, qalb qo‘rini, bor mehrini bolaga, shogirdiga beradi, lekin hech narsa so‘ramaydi. Mehnati natijasini uzoq yillardan so‘ng shogirdi kamolida, ehtiromida ko‘radi. Bundan quvonadi.

Yangi spektaklda xuddi shunday xislatni o‘zida mujassam etgan ta’lim fidoyisi To‘xtamurod Jumayev obrazi gavdalantirilgan. Spektakl g‘oyasi, syujeti, kompozitsion qurilishiga real voqealar asos qilib olingan. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida yashab o‘tgan ziyoli hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan spektaklda tom ma’nodagi zamonamiz qahramoni obrazi tomoshabinga taqdim etildi.

Dramaturg Qo‘chqor Norqobil, teatr rejissyori Doston Haqberdiyev sahna asarini yaratish uchun ustoz yashab o‘tgan uyga borib, uning xalqimizga ma’rifat tarqatishdagi sa’y-harakatlarini o‘rgandi. O‘sha yerda bir muddat yashab, yaqinlarining u haqdagi xotiralarini jamlab, bunyod etgan maktabi bilan tanishdi. Natijada hozirgi zamon Avloniysining qiyofasi go‘zal badiiyat bilan ishonchli qilib yaratildi.

Parda ochiladi. To‘xtamurod Jumayev va do‘sti Ergash suhbatlashib o‘tiribdi. Ergash do‘stiga yuzlanadi: “Do‘stim, tur, ketamiz, havo sovuq, tezroq yur!”. To‘xtamurod: “Sen ketaver”, deb unga ro‘yixushlik bermaydi va hushidan ketadi. Shu lahzada tushida kimdir unga “Aljabr” kitobini tutqazadi...

Sahnada davr o‘zgaradi. Sobiq ittifoq parchalangan 1990-yillar. Maktablar bir ahvolda, fanlar nari-beri o‘tiladi. Fidoyi o‘qituvchilar boshqa sohaga ketib qolgan. O‘sha davrning o‘tkir muammolari tomoshabinni hayajonga soladi.

Bosh qahramon To‘xtamurod Jumayev obrazini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Mehmonali Salimov, rafiqasi rolini Ma’suda Otajonova, hokim rolini Turg‘un Beknazarov ishonchli talqin etgan. Tomoshabin muallim yashagan yillarga qaytib, u bilan uchrashgandek bo‘ladi.

To‘xtamurod Jumayev maktab-internat ochishida ne-ne qiyinchiliklarga duch kelmadi?! Bor-budini sotib, maktab binosi qurilishiga sarflash har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Uning fikr-u zikrini yagona maqsad band etgan: bu shunday ta’lim maskani bo‘lishi kerakki, o‘quvchilar xorijga borib o‘qib, O‘zbekistonning sha’nini himoya qilib, muvaffaqiyat bilan qaytsin. Bunga faqat bugun zamin yaratishi kerak.

Pedagog kunni kun, tunni tun demadi, o‘zini o‘tga, cho‘qqa urdi, maktab-internat bunyod etilib, nafaqat Qorako‘l, balki yurtimizning boshqa viloyatlaridan ham o‘quvchilar kelib, yotib o‘qiyotgan kezda bu maskanga “Bolalar uyi” deya tamg‘a qo‘ygan kimsalarning tushunchasini

o‘zgartirish juda mushkul bo‘lgan. Maktab ochilgan paytda qorako‘lliklar bolasini bu yerda o‘qitmasdi. “Biz farzandlarimizni “detdom”ga bermaymiz” degan malomatdan g‘azablangan

maktab-internat rahbari “Bu yer bolalar uyi emas, xalqaro talablarga javob beradigan bilim maskani”, deydi. Biroq bahslashish befoyda edi.

Bir kuni ustozning uyiga farrosh ayol keladi. U nochor ahvolda bo‘lgani uchun bolalarini ushbu mehribonlik uyiga bermoqchiligini aytib, yig‘lab yuboradi. Ustoz hayratdan dong qotadi. “Ularning o‘qib o‘rganishga uquvi bormi?” deb so‘raydi. Chunki To‘xtamurod Jumayev maktabiga bilimdon, zukko o‘quvchilarni qabul qilardi. Onaizor “Bilmadim, bilimga qiziqishsa kerak, otasidan erta ajralib qolgandan so‘ng yolg‘iz boshim bilan ularni yedirib-ichirish qiyin bo‘lyapti”, deya zorlanadi.

Ustoz farrosh ayolga pul uzatadi. “Voy, nega unaqa qilyapsiz, bolalarimni o‘z qaramog‘ingizga olsangiz-u, yana sizdan pul olamanmi?” deganida muallim “Men birinchi bor maktabimga kelgan o‘quvchiga shu ehsonni beraman deb niyat qilgandim, oling, qo‘limni qaytarmang” deb ikki dona issiq non bilan uni kuzatib qo‘yadi.

Ha, bu maktabni ishga tushirish uchun nimalar bo‘lmadi? To‘xtamurod Jumayev bir necha kunlab yo‘qolib qolar, bundan xotini, farzandlari xavotirga tushar edi. O‘qituvchini maqsadidan qaytarish uchun ayrim amaldorlar zug‘um o‘tkazar, ularning “Bu maktabingiz bilan nimani qoyillatmoqchisiz?” degan iddaosini har kuni eshitishiga to‘g‘ri kelardi.

Yangilik hamisha qiyin qabul qilinadi. Buning uchun kurashish kerak. Orqaga yo‘l yo‘q. Hali hammasi yaxshi bo‘ladi. Ustozning ko‘nglidan har safar shu fikrlar o‘tib turardi. U niyatini amalga oshirish yo‘lida mahalla raisi yelkadosh bo‘lgani, xayrixohlik ko‘rsatgani spektakl ma’no-mundarijasini yanada boyitgan. Afsuski, nimadir bo‘ldi-yu, rais shifoxonada vafot etib, ustozni qo‘llab-quvvatlovchilar kamayadi. Uning tashabbusi bir oz bo‘g‘ilgandek bo‘ladi. Ammo yaxshilik, ezgu ish besamar ketmaydi.

Spektaklda bosh qahramon To‘xtamurod Jumayev timsolida butun millat o‘qituvchi va murabbiylari obrazi gavdalantirilgan. O‘sha dolg‘ali zamonda bilim berish, o‘quvchilarini xalqaro maydonga olib chiqishni orzu qilgan ustoz hech qanday muammoni pisand qilmasdi. Uning millatparvarligi, yangilikka o‘chligi, ilm-ma’rifat uchun hech narsadan toymasligi ham shundan. U mol-dunyo yig‘madi, oltin yig‘madi, aksincha, bor mulkini sotib bo‘lsa-da, Qorako‘l tumanida aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat ochishga erishdi.

Oradan olti yil o‘tdi. Maktabning ilk qaldirg‘ochlari matematika bo‘yicha xalqaro olimpiadada oltita oltin medal oldi. Xushxabarning dovrug‘i butun mamlakatga yoyildi. Maktab ochilishiga ro‘yixushlik bermaganlar ham qo‘ng‘iroq qildi, tabrikladi... To‘xtamurod Jumayev ularga iddao qilmadi, qutlovlarini iliq va samimiy qabul qildi.

Maktabda yildan yilga o‘quvchilar safi kengayib borardi. Keyinchalik To‘xtamurod Jumayev maktabida tahsil olishning talablari ishlab chiqildi. Maktab nizomiga muvofiq, har bir o‘quvchi maxsus imtihon asosida o‘qishga qabul qilinadi. Agar u imtihondan o‘tsa, maktab uni quchoq ochib, qarshi oladi. O‘tmasa, vazirning farzandi ham qabul qilinmaydi. Hamma uchun talab yagona. Hatto ustozning nevarasi imtihondan o‘tolmagani uchun qabul qilinmaydi. Akasi, ayoli, suyukli qizi otasidan iltimos qilib kelsa ham “Imtihonga yaxshilab tayyorlanishi kerak. O‘tsa, marhamat, o‘qiydi. Bo‘lmasa, meni qiynamanglar” deganida qizi uch yil u bilan gaplashmay, teskari bo‘lib yurgan. Bu haqda To‘xtamurod Jumayevning qizi Adolat muallifga aytib berar ekan, “Otam rahmatli to‘g‘ri qilgan ekan, men keyin xatomni tushundim. O‘shanda rostdan xafa bo‘lib, otam bilan gaplashmagan edim” deb afsus bilan xo‘rsinadi.

Spektaklda eng ta’sirli sahnalardan biri. Ustozning do‘sti Ergash “Falonchi mahallada yashaydigan o‘qituvchini urib, do‘pposlab ketishibdi”, deydi. To‘xtamurod domla “Nahotki, hech kim qutqarmagan bo‘lsa, o‘qituvchining hurmati shu darajada oyoqosti bo‘ldimi? “Ustoz otangdek ulug‘” degan so‘z bor. Otani urgan odam oqpadar deyiladi. Demak, ustozni urgan ham oqpadar ekan-da... Xuddi shunday”, deganida tomoshabin junbishga keladi.

Spektakl bosh qahramoni bunday deydi:

— Xalq ham, vatan ham kimlarningdir zug‘umi ostida irib-chirib yotmasligi kerak, bilasanmi? Bizning vatanimizni bilimli avlod qutqaradi, buning uchun yetuk maktablar kerak, ana shundagina bizlar oyoq ostida qolib ketmaymiz.

Spektaklning final qismiga yetib keldik. U qanday yakunlangan?

Dramaturg ustoz monologini berib, butun tomosha zalini qalqitadi:

“Maktablar qutqaradi, maktabni ulug‘lagan, muallimni qadrlagan yurtni Yaratganning nazari asraydi. Qanchadan-qancha allomalarni ulg‘aytirgan o‘zbek zaminidan bekorga nur taralmaydi. Maktabda hikmat ko‘p, mendan rozi bo‘l, hayotimning mazmuni bo‘lgan ushbu dargoh, men senga umrimni, hayotimni tikkanimdan roziman. Kelajagim, ortimdan kelayotgan avlod, aziz farzandlarimizning qalbini yoritib tur. Ey ulug‘ dargoh, bag‘ringdagi nur so‘nmasin sira. Seni so‘nggi bor singdiray, ochiq ko‘zlarimga seni singdiray. Vujudim bahra olsin deb keldim oldingga. Men baxtliman, men maktab bunyod etdim, bu maktab har bir o‘g‘il-qizning yuragida ham qad rostlaydi. Shu maktab sha’niga aytilgan so‘zlardan ruhim yorishadi. Demak, demak, men o‘lmayman. Men shu maktab timsolida sizlarning qalbingizda mangu yashayman. Omon bo‘l, ey qutlug‘ dargoh. Omon bo‘linglar, aziz odamlar”.

Parda yopiladi. Zalda gulduros qarsak yangraydi. Rosti, bu sahna asarini tomosha qilib, mazmunli asar o‘qigandek bo‘ldim. Ana, zamonamiz qahramonlarining obrazini qanday yaratish kerak! Savolga javob izlashning zarurati yo‘q. Javobni “Bizga maktab kerak yoxud zamon Avloniysi” spektaklidan topasiz...

Mulohaza

TILANCHILIKMI YOKI TALONCHILIK?

BOQIMANDALIK HECH BIR KISHIGA XOS BO‘LMASLIGI KERAK

Ishdan qaytayotib, hamkasblar bilan ro‘zg‘or xaridi uchun do‘konga kirdik. Sotuvchidan mahsulot sotib olayotgan qirq yoshlar chamasi, binoyidek ko‘rinishdagi odamning muloqotidan hayratlanib ketgan hamkasbimizning so‘zi e’tiborimizni tortdi.
— Ie, bu gapirar ekan, cho‘loq ham, soqov ham emas ekan-ku, — dedi.
— Bunga rahmim kelganidan har ko‘rganimda pul beraman... Miyig‘ida kulib turgan xaridor qo‘lidagi yelimxaltalarni stol ustiga qo‘yib, hamkasbimning oldiga yaqinroq keldi va ko‘rsatkich barmog‘ini labiga bosdi.
— Tirikchilikda, — deya do‘kondan chiqib ketdi...

Aholi gavjum joylar, avtomobil chorrahalarida o‘zini nochor ko‘rinishga solib, tilanchilik qilayotganlarni har qadamda uchratamiz. Yosh bolalar, chaqaloq ko‘targan ayollarning bu ishga ruju qo‘yib borayotganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi, albatta. Aytishlaricha, ular guruh-guruh bo‘lib ko‘chib yurar, borgan joyidan ijaraga uy olib, “faoliyat” yuritar ekan. Endi o‘ylab ko‘ring, ijara uy bepul berilmaydi. Bundan tashqari, oziq-ovqat, ust-bosh chiqimidan orttirib, kun kechirishning o‘zi bo‘lmaydi.

Kuz yomg‘iri sevalay boshladi. Yupun kiyingan ayol, sovuqdan dildirab qolgan, nari borsa, 4-5 yoshli ushoqqina qizaloqni yetaklab, chorrahadan o‘tgan-ketgan mashina oldiga borib, tilanchilik qilib turibdi.

— Xudo yo‘liga sadaqa qiling, yo‘lingiz bexatar bo‘lsin...

To‘g‘risi, “mehnati” besamar ketayotgani yo‘q. Svetoforning qizil chirog‘ida to‘xtagan har ikki haydovchidan biri ko‘nglidan chiqarganini berib ketyapti. Sovuqda muzlagan qo‘llar, atrofga javdirab turgan ko‘zlarga rahmim keldi.

— Ivib ketibsizlar-ku, — deya mashina oynasini tushirib, tilanchi ayolga yuzlandim.

— Bizga bo‘laveradi, — deb ishini davom ettirdi ayol.

— Qizingizga rahmingiz kelsin. Bu alfozda kasal bo‘lib qoladi.

Ayol mashinalar tomon yugurib borib, kaftini ochayotgan qizaloqqa bir dam tikilib qoldi.

— O‘tiringlar, panaroq joyga eltib qo‘yaman...

Ona-bola mashinaga chiqdi.

— Shu yomg‘irda sizlarga zarilmi?

— Tirikchilikning aybi yo‘q, uka. Shunga o‘rganib qolganmiz.

— Biror joyda ishlasangiz bo‘lmaydimi?

Gapim yoqmadi shekilli, ayolning ko‘zlari chaqchayib ketdi.

— Mashinani to‘xating, yetib keldik, — deya endi halovat topgan qizaloqni tushirib, eshikni qarsillatib yopdi...

Ko‘z o‘ngimizda uchrab turgan bunday noxush voqealar mulohazaga undaydi. Nafaqat ayol va bolalar, balki tog‘ni ursa talqon qilgudek, to‘rt muchasi sog‘ yigitlarning ham bu “ish” etagidan tutgani, faqat talab qilishga odatlanib qolayotganiga nima deysiz?!

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati rahbari Abror Dehqonov bir voqeani aytib berdi. Mutasaddilar ijtimoiy himoyaga muhtoj oila holidan xabar olib, bir qop un va boshqa kerakli mahsulotlarni olib boribdi. Uy sohibi ulardan non yopish uchun tandir, elektr pech olib kelib berishni talab qilibdi. Bo‘lmasa, yuqori idoralarga arz qilishini aytib, do‘q uribdi.

“Xo‘jailg‘or” mahalla fuqarolar yig‘inida Ehromjon Abduhakimov degan yigit yashaydi. Tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bor, yurishga qiynaladi. Ammo mehnat qiladi, birovning marhamatiga qarab qolgani yo‘q.

Dastlab uy sharoitida kichik do‘kon ochdi. Mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan faoliyatini kengaytirish uchun 100 million so‘m imtiyozli kredit oldi.

— Uning hayot tarzi, izlanish va intilishi, matonati va irodasi ko‘plar uchun o‘rnak, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Bahodir Mamajonov. — Kamtar, kamsuqum, doim harakatda. O‘zidan orttirib, boshqalarga ko‘mak beradi, qo‘llab-quvvatlaydi. Ayni kunda ochiq auksion orqali sotib olgan maydonda to‘rt qavatli sport va xizmat ko‘rsatish majmuasini quryapti. Bu mahalladagi o‘nlab yoshlarning ish bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Bunday hayotbaxsh tashabbuslardan ko‘ngil ko‘tariladi, albatta. Boshqa holatlarni ko‘rib beixtiyor achinadi kishi. Bir ayol bir yil davomida turli idoralardan yordam so‘rab, 14 ta tikuv mashinasi olibdi. Ammo hayot tarzida hech qanday o‘zgarish bo‘lmadi. Chunki barcha tikuv mashinasini pullab, yana idorama-idora yordam so‘rab yuribdi.

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ayrimlar buni kasb-korga aylantirib olgan. Joylarda aholi qabul qilinayotgan izdihomga borsangiz, o‘sha tanish chehralarga duch kelasiz. Ular bu qilmishi tilanchilik ekanini tan olmaydi. Nega ularni yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo‘lida halol mehnat qilishga da’vat eta olmayapmiz? Mahalla-ko‘y, keng jamoatchilik qayoqqa qarayapti? “Sen menga tegma, men senga tegmayman” qabilida ish ko‘rishdan kimga naf?

— Sog‘lom bo‘lsa-da, mehnatga toqatsiz, boshqalarga suyanib yashash, ko‘cha-ko‘yda tilanchilik qilishni tirikchilik manbaiga aylantirganlar uchrab turishi achchiq haqiqat, — deydi Toshloq tumani bosh imom-xatibi Inomjon To‘ychiyev. — Muqaddas dinimiz bunday ishdan qaytaradi va halol mehnat bilan rizq topishga chaqiradi. Jumladan, Zubayr ibn Avvom roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda payg‘ambarimiz bunday deganlar: “Sizlardan biringizning qo‘liga arqon olib, erta tongda turib o‘tin terib sotishi va uning puliga taomlanib, ro‘zg‘orga ishlatib, ortganini ehson qilishi odamlardan tilanchilik qilib so‘rashdan yaxshidir. Insonlar ba’zida beradi yo bermaydi” (Imom Buxoriy rivoyati). Payg‘ambarlar hamda barcha alloma va avliyolar ham biror kasb bilan shug‘ullangan. Shu orqali halol mehnat qilib, rizqini tergan.

— Ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish maqsadida tilanchilikni o‘ziga kasb qilib olganlarni aniqlash, faoliyatiga qonuniy choralar ko‘rishga alohida e’tibor berib kelinyapti, — deydi Farg‘ona viloyati IIB axborot xizmati boshlig‘i Ismoil Sharipov. — Joriy yilning o‘tgan davrida ko‘cha va jamoat joylarida, xiyobon va bozorlarda, transport qatnovi zich chorrahalarda tilanchilik bilan shug‘ullanib yurgan 841 shaxs aniqlandi. Ularni ish bilan ta’minlash, kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida mahalla fuqarolar yig‘ini, bandlikka ko‘maklashish markazlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda mehnat yarmarkalari tashkil etish, kasb-hunarga o‘qitishga alohida e’tibor berilyapti. Shuningdek, oilalarni kambag‘allikdan chiqarish yo‘lida yaratib berilgan imtiyoz va imkoniyatlar xususida targ‘ibot-tashviqot tadbirlari o‘tkazib kelyapmiz.

Ota-bobolarimiz tilanchilik, talonchilik qilib kun ko‘rishni or deb bilgan. Ayrim oqil va dono kishilar bundaylarning hayotda o‘z o‘rnini topib olishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida yer, suv, sarmoya bergan. Bunga itoat qilmay, berganni ko‘kka sovurib, yana tilanchilik qilganlarni esa yurtdan badarg‘a etgan.

Kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylangan bugungi hayotimizda uchrab turgan bunday illatlarga qarshi birgalikda kurashish muhim amallardan.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3918.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:30 Topshirildi — 22:40